

MAXSUDA SARIBOYEVA O'RINBOYEVNA

ADABIYOT DARSLARIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MAXSUDA SARIBOYEVA O'RINBOYEVNA

**ADABIYOT DARSLARIDA SHAXSGA
YO'NALTIRILGAN TA'LIM
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

Monografiya

**Toshkent
“Innovatsiya-Ziyo”
2021**

Sariboyeva Maxsuda

Adabiyot darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish /Monografiya/. - Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti, 2021. -126 b.

Ushbu kitob adabiyot darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash, o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutishi asoslab berilgan. Monografiyada aks etgan yetakchi qarashlar ta'lim ishtirokchilarining shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari mohiyatiga chuqurroq kirishini ta'minlaydi.

Mas'ul muharrir va so'zboshi muallifi:

Valijon QODIROV,
pedagogika fanlari doktori

Taqrizchilar:

Muzaffar MAMATQULOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Go'zal QURBONOVA,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu monografik tadqiqot Guliston davlat universitetining Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6793-1-3

© Sariboyeva M. 2021.
© "Innovatsiya-Ziyo", 2021.

SO‘Z BOSHI

Dunyoda islomiy tarbiya maktabi sifatida e’tirof etiladigan tasavvuf tariqatlari rahnamolari bo‘lmish komil murshidlar orasida “usul bo‘lmaguncha vusul bo‘lmas” degan hikmat mashhur. Bu hikmat ostida har ishning amalga oshirish usuli, samaraga yetishish metodlari bo‘lishiga va ular orqaligina natijaga erishish mumkinligiga ishora bor. Bu nafaqat ta’lim-tarbiyaga, balki insonlar tomonidan amalga oshiriladigan har qanday faoliyat turiga aloqador ko‘rsatmadir. Lekin u o‘qitish, tarbiyalash ishida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ta’lim-tarbiyaning har bir turi, shakli usul (metod, texnologiya, vosita)lar bilan amalga oshiriladiki, ularsiz jarayonning o‘zini tasavvur qilish qiyin. Shu bois qadimdan o‘qitish, tarbiyalash texnologiyalarini yaratish, ularni amaliyotga joriy qilish hamda takomillashtirishga jiddiy e’tibor qaratilgan. Bugungi kunda yaqin o‘n yilliklarda G‘arb mamlakatlaridan bizning ta’lim tizimimizga o‘zlashgan bir qator texnologiyalarga bundan bir necha asrlar ilgari ajdodlarimiz tomonidan tamal toshi qo‘yilganligi oydinlashmoqda. Bu esa qomusiy olim sifatida dunyoda e’tirof etiladigan ajdodlarimiz dahosining ta’limiy asoslarini anglashga yordam beradi.

O‘qitish, tarbiyalash o‘ziga xos ijoddir. Ana shu ijod jarayoni individ bo‘lgan yaratiqni inson qilib shakllantirish maqsadini qo‘yadi. Maqsadga borish yo‘llari esa bitta bo‘lmaydi yoki cheklab qo‘yilmaydi. Har kim o‘z imkoniyati, salohiyati va sharoitidan kelib chiqib yo‘l axtaradi, usul qo‘llaydi va, tabiiyki, natijasi ham shunga ko‘ra bo‘ladi. Jahonda bir nechta yo‘nalishda ta’lim-tarbiya natijadorligini

ta'minlaydigan ta'lim texnologiyalaridan foydalanib kelinmoqda va ularning samaradorligi mutaxassislar tomonidan birdek e'tirof etilgan. Ular ichida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari alohida qiziqish uyg'otayotganini ham e'tirof etish kerak. Shundan bo'lsa kerak, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ilmiy ishlar sirasida mazkur texnologiyaga oid tadqiqotlar yetakchilik qilmoqda. Ularning aksariyati fanlar kesimida yoki tarbiyaning muayyan yo'nalishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni tatbiq qilish muammosiga bag'ishlangan. Ushbu monografiya adabiyot darslarida mazkur texnologiyalardan foydalanish yo'riqlariga bag'ishlangan va u bu boradagi dastlabki umumlashma xarakteridagi ilmiy asardir.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, monografiya amaliyotdagi katta ehtiyojni qondirishni ko'zlab yozilgan. Adabiyot o'qituvchilari ancha yillardan buyon bu kabi metodik xarakterdagi ilmiy kitoblarni kutishayotgan edi. Muallif yoritilayotgan mavzuga aloqador bor ma'lumotlarni o'ta siqiq, lo'nda, ortiqcha tafsilotlarsiz berishga e'tibor qaratgan. Shu bois muqaddima qismidanoq pedagog olimlar tomonidan mavzuning o'rganilishi yoki shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llashga xos bo'lgan tamoyillar berila boshlagan. Keyingi nazariy masalalar yoritilishida ham ushbu monografiya kimga qaratilganini (ya'ni o'qituvchini) hisobga olib, imkon qadar murakkab ilmiy atama va iboralarni sodda, tushunarli muqobillari bilan almashtirib qo'llagani ham e'tiborni tortadi. O'quv faoliyati subyektlarida yangicha yondashuvni qaror toptirish shartlari, ular asosida adabiy ta'lim tizimi

samaradorligiga erishishning tamoyillari borasidagi olima qarashlari orginalligini e'tirof etish zarur.

Alohida bir bobda muammoning amaliy yechimlari batafsil yoritilgan. Unda, xususan, hamkorlik pedagogikasi tarixi, talqini, mohiyati bayon qilingan, adabiy ta'lim samarasini oshirishdagi o'ziga xosligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, hamkorlik pedagogikasining eng yorqin ko'rinishi bo'lgan kichik guruhlarda ishlash borasida ham batafsil amaliy yo'riqlar berilgan. Ular bilan tanishgan har qanday mutaxassisda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida adabiyot darslarida o'quvchi shaxsini ta'lim va tarbiya uyg'unligida faollashtirish mexamizmi namoyon bo'ladi.

Monografiyaning Kirish qismida "...ertangi kun bugundan boshlanadi" degan tezis tashlangan ekan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim Adabiyot darslari orqali olamni to'g'ri anglaydigan, odamni teran tushunadigan kelajak avlod ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Monografiya ushbu vazifani ado etishda mutaxassislarga dastak bo'ladi.

***Valijon QODIROV,
pedagogika fanlari doktori***

MUQADDIMA

Respublikada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy, mafkuraviy, madaniy sohalardagi islohotlar ta‘lim-tarbiya tizimida ham jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi Respublikamizda ta‘lim tizimini isloh qilish, o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish va zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish, yangi pedagogik texnologiyalarni ta‘limga joriy etish, yosh avlodning yosh xususiyati, bilish faoliyati, tafakkuri, iqtidorini nazarda tutgan holda ta‘lim-tarbiya berish, davlat dasturlari, ta‘limning davlat me‘yorlariga mos bo‘lgan bilim va malakalarni shakllantirishga imkoniyat yaratdi.

“2019–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi”ning 3.4-bandida belgilangan: *“Ta‘lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish o‘quv-tarbiya jarayoniga yangi ta‘lim dasturlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va smart-texnologiyalarini joriy qilish orqali o‘qitish sifatini yaxshilash”* maqsadini amalga oshirishni nazarda tutadi. Ushbu strategiyada belgilangan vazifalarni bajarish umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘qituvchilari va shu sohada tadqiqot ishlari olib borayotgan ilmiy izlanuvchilarga katta mas‘uliyat yuklaydi.

Adabiyot darslarida **shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish** texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalda

qo‘llash ta‘lim tizimiining muhim jihatlaridan hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishlari uchun yetarli shart-sharoit yaratish doim dolzarb bo‘lib kelgan.

Hozirgi kunga qadar mamlakatimizda yetuk, ma‘naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashga juda katta e‘tibor berib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlab o‘tganidek, “Ta‘lim va tarbiya, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san‘at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo‘lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta‘minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi”¹.

Mamlakatda bugungi kun talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan Milliy dastur barcha ta‘lim tizimlari oldiga “...ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar sarqitlaridan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma‘naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash” vazifasini qo‘ygan bo‘lsa-da, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bajarilishining holatini uchala bosqichda ham to‘liq amalga oshirildi deb bo‘lmaydi². Bu holni ta‘lim tizimida ham uchratish mumkin. Shunday ekan, adabiy ta‘lim tizimining samaradorligini ta‘minlashda chet mamlakatlar ilg‘or tajribalaridan, xususan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSH, Rossiya, Latviya, Norvegiya kabi mamlakatlarning

¹.Mirziyoyev Sh.M “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.” - T.: O‘zbekiston, 2017. 16-b.

² O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi / Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konseimi. 1997. - 20-29-b.

tajribalarini ta'lim tizimiga joriy qilish zarur.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan: "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish..."¹ ishlarini yo'lga qo'yish mamlakatda eng ustuvor masalalardan biri bo'lib turibdi.

Ma'lumki, ertangi kun bugundan boshlanadi. Mamlakat kelajagi bugun ta'lim-tarbiya olayotgan avlodga, yuqorida ta'kidlanganidek, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liq. Shu bois ham ta'lim-tarbiya sohasiga, jumladan umumiy o'rta ta'lim tizimiga katta e'tibor berilmoqda.

So'nggi yillar davomida ta'lim tizimi, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatiga yangi innovatsiyalarni joriy etish, ta'lim usullarining mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar dolzarblik kasb etmoqda. Adabiy ta'lim jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini joriy etish masalasi tadqiqotchilar e'tiborini jalb etmoqda. Shu bilan birga pedagogik texnologiya nazariyasining muayyan elementlari asosida adabiy ta'lim sifatini oshirish borasidagi tadqiqotlar ham olib borilgan va bu jarayon davom etmoqda.

D. Dyui², E. Bern¹, S. Zanko², A. Kazakov, M. Klarin³, G. Selevko⁴ va boshqa chet ellik olimlar o'z tadqiqotlarida shaxsga yo'naltirilgan

¹ "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi P/F – 4947-sonli Farmon. – //Xalq ta'limi. 2017. 2-son. 3–35-betlar.

² Дьюи Д. Образование и демократия. - Москва: 2000.

texnologiyalarni qo'llash yo'llari to'g'risida turli daraja va miqyoslarda o'z qarashlarini bildirganlar.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari (interfaol usullar)ni rivojlantirish muammolari ustida O'zbekistonda pedagog olimlarimizdan Q. Yo'ldoshev,⁵ J.Yo'ldoshev⁶, N.Sayidahmedov⁷, M.Ochilov⁸, F.Qodirova⁹ kabilarning ishlari bunga misol bo'la oladi.

Istiqol davriga kelib o'rta ta'lim tizimi o'qitish muammolariga sog'lom va xolis yondashila boshlandi. Professor Q. Yo'ldoshev o'z doktorlik dissertatsiyasida epik asarlarni o'qitishda o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlarini hisobga olish, asarning hajmi yoki murakkablik darajasidan kelib chiqib, turli o'quv tadbirlarini qo'llash yuzasidan tavsiyalar bergan. Epik asarlarni o'qitishda mavjud yaroqsiz tajriba, ya'ni asardagi voqealarni bayon qilishdan mutlaqo voz kechish kerakligini aytgan. Hayotimizning barcha sohalari kabi ta'lim tizimini ham modernizatsiyalash, shaxsga yo'naltirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash bugungi kunning muhim omilidir.

¹ Берн Э. Игры, в которые играют люди. Психология человеческих взаимоотношений. Люди, которые играют в игры. Психология человеческой судьбы. -Москва: 1988.

² Занько С. Ф. и др. Игра и учение. - Москва: 1992.

³ Кларин М. В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. - Москва: «Арена», 1994.

⁴ Селевко Г. К. Энциклопедия образовательных технологий. В 2 т. Т. 1 - Москва: 2006.

⁵ Yo'ldoshev Q. Yangicha pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok... diss. -T.: 1997. - 306 b

⁶ Yo'ldoshev J, Yo'ldosheva F, Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim - sifat kafolati. (Bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim). - T.: 2008. 25-b.

⁷ Sayidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. -T.: RTM, 2000. - 46 b.

⁹ Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: "Nasaf", 2000. - 79 b.

¹⁰ Qodirova F. Pedagog kadrlarga yangi pedagogik texnologiyalar haqida. //Til va adabiyot ta'limi. 2001. 4-son. 9-10-b.

O‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy prinsiplar xos bo‘ladi:

- insonparvarlik, ya’ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko‘rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo‘ravonlikdan to‘la voz kechish;
- hamkorlik, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;
- erkin tarbiyalash, o‘quvchilarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish.

Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishda, milliy tilga, o‘z xalqining an‘analariga iftixor hissini kamol toptirishda “Adabiyot” darslarining o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o‘z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko‘zlagan holda ish olib boramiz. Bugungi kunda barkamol, yetuk shaxsni shakllantirish dolzarb muammo sifatida maydonga chiqdi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni tanlashda ana shu jihatlarga e’tiborni qaratish lozim, chunki ta’lim jarayonida o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlari namoyon bo‘ladi va mustahkamlanadi.

I BOB. ADABIYOT DARSLARIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY MASALALARI

ADABIYOT DARSLARIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINI O‘RGATISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borib, xalqimiz hayotida buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Barcha jabhada, jumladan, iqtisodiy, madaniy, ilmiy, sog‘liqni saqlash, ayniqsa, ta‘lim sohasidagi hech kimning xayoliga ham kelmagan mislsiz o‘zgarishlar, rivojlanishlar yuz berdi. Xalq ta‘limi sohasida olib borilayotgan tub islohotlar ham o‘z samarasini bermoqda.

Yo‘lboshchimiz Sh.Mirziyoyev haqli ravishda ta’kidlaganidek, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi”¹ ga erishishda “...umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish”²ga alohida urg‘u berilgani bejiz emas.

Insoniy taraqqiyot har qanday makon va zamonda ma’naviy ildizdan oziqlanib ketgan. Zotan, jahon hamjamiyati mamlakatlari

¹ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. 14-b.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida / Rasmiy nashr / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2018. 35- b.

qatoridan munosib o‘rin egallash, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan rivojlanish ezgu ma‘naviy-axloqiy sifatlarsiz mumkin emas. Shu bois bugun bir odamning tashvishi u tegishli bo‘lgan butun jamiyatning tashvishidan kam sanalmaydi. Bunday yo‘l tutilmagan jamiyatda, albatta, mustabidlikka yo‘l ochiladi.

O‘zbekiston Respublikasida dunyoning rivojlangan mamlakatlari kabi kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va OO‘MTVning kelib chiqadigan vazifalarni ijrosi bo‘yicha ko‘rsatmalari axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, barcha sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo‘lishni kengaytirishga zamin yaratadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – ta’lim oluvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalar rivojlanish holati, birinchi navbatda, jamiyatning intellektual salohiyatiga, ya’ni ta’lim sohasi taraqqiyotiga bog‘liq. Shu bois ta’lim mazmuni va sifat masalalariga ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda, turli islohotlar amalga oshirilib, me’yoriy va huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda, davlat standartlari asosida o‘quv dasturlari yangidan tuzilmoqdaki, bularning barchasidan ko‘zlangan bosh maqsad zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan yoshlarni tayyorlashdan iboratdir. Amalga oshirilgan mazkur tadbirlar esa, o‘z navbatida, fanlarni o‘qitish metodikalarini qayta ko‘rib chiqishni

talab etadi. Demakki, ta'lim usullari va ularning pedagogik samaradorlikni oshirishdagi o'rnini aniqlash mamlakatimiz taraqqiyotidagi belgilovchi, hatto hal qiluvchi odim sanaladi.

O'zgargan ijtimoiy tafakkur, dunyoni idrok etish tarzi adabiyotga munosabat va uning talqin etilishiga ta'sir etmay qolmaydi. Shu bois insoniy faoliyatning eng oliy ko'rinishi bo'lmish adabiyotni o'qitishdan ko'zlangan maqsad ham yangilandi. Bu esa darsni uyushtirishga mutlaqo yangicha yondashuvni talab etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim tizimining "Yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga"¹ yo'naltirilishi alohida ta'kidlab o'tilgan. Ana shu nuqtai nazardan hamkorlik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'zida muhim pedagogik muammoni aks ettiradi.

Noan'anaviy shaklda tashkil etilayotgan darslar o'quvchilarni jamoa hamda guruh ishtirokida faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga o'zgalar fikrini tinglash, o'zining mustaqil qarashlarini ilgari surish, ularni dalillash, mavzu yuzasidan bildirilayotgan fikrlarni umumlashtirish, ular orasidan eng muhimlarini tanlab olish, shuningdek, yakuniy xulosaga kelish imkoniyati yaratiladiki, natijada o'quvchilarda o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj yuzaga keladi hamda rivojlanib boradi.

¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: – Sharq, 1997. – 34 b.

Tadqiqotni olib borish jarayonida quyidagi holatlarning ustuvorligi ko‘zga tashlanishi ma’lum bo‘ldi:

- adabiy ta’limida o‘qituvchilarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari mohiyatidan yetarli darajada xabardor emasliklari;
- ularda darslarni tashkil etishga nisbatan innovatsion texnologik yondashuvning qaror topmaganligi;
- ta’lim jarayonida axborot vositalari xizmatidan foydalanishga sezilarli darajada e’tibor qaratilmayotganligi;
- o‘quvchilarning mustaqil faoliyat yuritishlari, alohida faollik ko‘rsatishlariga imkon berilmayotganligi;
- dars mashg‘ulotlarning standart ko‘rinishga (an’anaviy shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etish) ega bo‘layotganligi.

Ma’lumki, “Adabiyot” darslariga noan’anaviy darslarni, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni olib kirish va uni ta’lim mazmuniga singdirish, dars o‘tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishda, milliy tilga, o‘z xalqining an‘analariga iftixor hissini kamol toptirishda “Adabiyot” darslarining o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o‘z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko‘zlagan holda ish olib boramiz.

Bugungi kunda barkamol yetuk shaxsni shakllantirish dolzarb muammo sifatida maydonga chiqdi.

Bilish, iroda va hissiyot jarayonlari o‘qish-o‘rganishda yuzaga

chiqadi va taraqqiy etadi. O‘quvchilar aqliy jihatdan ancha o‘zgaribgina qolmay, ularning xarakter sifatlari ham o‘zgaradi, axloqiy jihatdan ham o‘zgaradilar.

Pedagogning adabiy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini belgilashda uchta sohani inobatga olish lozim: shaxs, faoliyat bo‘yicha va reflektiv.

Shaxs sifatida tayyorgarlik – bu pedagogik tafakkur (gnostik, ya’ni aqliy qobiliyatlar - ilmiy ma’lumotlarni farqlash malakalari, amaliy faoliyatda ilmiy bilimlarni to‘g‘ri qo‘llash, pedagogik vazifalarni malakali hal etish); pedagogik maqsadni belgilash (tashkilotchilik qobiliyatlari - o‘qitish va takrorlash uchun optimal sharoit yaratish malakalari, mashg‘ulotning kerakli shakllarini tanlash, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, o‘quv jarayonini kerakli inventar jihozlari bilan ta’minlash; o‘z mehnatini tashkil etish, har qanday tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkazish (adabiy kechalar va boshqalar); pedagogik yo‘naltirilganlik (kommunikativ qobiliyatlar: ma’lum bir ta’lim olayotganlar kategoriyasi uchun hammabop shaklda ma’lumotni taqdim etish qobiliyati, vaziyatga qarab ma’lumotni berish usul va uslublarini to‘g‘rilash, birovni ishontira olish qobiliyati, “o‘qituvchi-o‘qituvchi”, “o‘qituvchi-o‘quvchi” darajalarida kasbiy muloqotni savodli tuzish va boshqalar).

Kasbiy tayyorgarlik: pedagogik takt (intellektual mehnat bo‘yicha loyihaviy qobiliyatlar: oddiy standartlar va qaror uslublarini olib tashlab, yangi, ajoyiblarini izlash; ushbu va o‘z o‘zidan ma’lum narsadan yuqorilarini ko‘ra bilish; odatdagi muammolarni asosiy bog‘liqliklarini qamrab olish; qaror qabul qilishning bir nechta turli yo‘llarini aniq ko‘ra

bilish va xayolan eng samaraligini tanlash; barcha masalalar hal etilib bo'lingan joyda muammoni sezish va mavjudligi; g'oyaviy hosildorlik; bolaning individual rivojlanish o'quv jarayonini, innovatsion o'quv rejasi, dasturi, o'z faoliyatini loyihalashtirish va boshqalar).

Refleksiv tayyorgarlik: pedagogik refleksiya (refleksiv qobiliyatlar sezgirlikning 3 turini o'z ichiga oladi: ob'ektni his etish: real haqiqat bolalarda qanday aks-sado berayotganiga, bunda qay darajada o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlari namoyon bo'lishiga, "ularni pedagogik tizimning talablariga mos kelishiga" pedagogning alohida sezgirliigi; me'yorni his etish va takt turli pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari ta'sirida bola shaxsida va faoliyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar o'lchoviga alohida sezgirlikda namoyon bo'ladi, umuman qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda, ular ijobiymi yoki salbiymi, qaysi belgilarga ko'ra ular haqida so'zlash mumkin; dahldorlik hissi pedagogning shaxsiy faoliyati kamchiliklariga, tanqidiyligi va o'quv jarayoniga javobgarlik sezgirliigi bilan ta'riflanadi).

Yuqoridagilar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni tatbiq etishda o'quvchi va o'qituvchi shaxsining alohida rivojlanishi emas, balki ta'lim jarayoni yaxlit sub'ektining rivojlanishi amalga oshirilishi lozimligidan dalolat beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining turlari. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab

qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim **shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim** deb nomlanadi.

Odatda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining quyidagi **turlari** farqlanadi:

Modul, muammoli, individual, masofaviy, kompyuter, hamkorlik, loyiha, dasturiy, tabaqalashtirilgan, rivojlantiruvchi, o‘yinli ta’lim texnologiyalar va h.zo.

Bu texnologiyalar shaxs shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi, o‘quvchida ijodiy izlanish ko‘nikmasini takomillashtirishga yo‘naltiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar insonning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shaxs shakllanishining asosini **bilim, malaka, ko‘nikma** tashkil etadi.

Avtoritar texnologiyada esa pedagog yagona sub’ekt sifatida namoyon bo‘ladi, o‘quvchilar esa faqatgina “ob’ekt” vazifasini bajaradi, xolos. Bunda tahsil oluvchining tashabbusi va mustaqilligi yo‘qoladi, o‘qitish majburiy yo‘sinda amalga oshiriladi.

An’anaviy o‘qitish asosan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, shaxsning rivojlanishini ko‘zda tutmaydi. Bu bilan an’anaviy usulni qoralamoqchi emasmiz. An’anaviy va noan’anaviy ta’limni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish yoki ta’limning bir usulini ikkinchisidan foydali, deyish noto‘g‘ridir. An’anaviy o‘qitish usulining ham o‘z navbatida yutuqlari bor. An’anaviy ta’lim usuli ega bo‘lgan yutuq va kamchiliklar quyidagi jadvalda yaqqol aks etadi:

An'anaviy o'qitish usulining yutuq va kamchiliklari

Yutuqlari	Kamchiliklari
- ilmiylik; - ketma-ketlik, tizimlilik; - tushunarlilik; - mustahkamligi; - ko'rgazmaliligi; - nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi.	- darsning bir qolipdaligi, bir xilligi; - mavzu yuzasidan dastlabki ma'lumot berilib, uni o'zlashtirish jarayoni uyga vazifa orqali amalga oshirilishi; - o'quvchilarning passiv eshituvchi ekanligi va ularda mustaqillik yo'qligi; - o'quvchilar bir-biri bilan fikr almashmasligi, nutqiy fikr almashuv amalga oshmasligi; - qayta aloqalar yo'lga qo'yilmasligi; - barcha tadbirlar o'rtacha o'quvchiga moslanganligi; - ta'lim berish faqat o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi.

O'zbekistondagi ilm-fan va ta'lim sohasi ichki va tashqi muhitdagi o'zgarishlar va ilg'or tajribalarni o'zida mujassam etgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim xizmatlari sohasidagi boshqaruv samaradorligini oshirish iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanishi mumkin. O'zbekiston dunyoning yetakchi mamlakatlari qatoriga kirishi uchun o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi zarurligi o'z isbotini topmoqda.

Aynan shuning uchun iqtisodiyotning muammolari va ta'limni boshqarish muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar nafaqat muhim, balki umuman olganda ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar tarkibida eng ustuvor yo'nalishlar qatoriga kiradi.

Mahalliy ta'limni isloh qilishda uning tarixi va hozirgi holati haqida aniq tushunchaga ega bo'lish muhim masala hisoblanadi. Aks holda eski qarashlarga yangilik sifatida qaralib ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.

Ushbu muammoni hal etish nazariy manbalarni o'rganishga asoslangan bo'lib, ular bir tomondan pedagogik jamoa bilan metodologik ishlarni tashkil qilishni yoritib beradi. Adabiy ta'limni o'qitishda samaradorlikka erishish ta'lim jarayoniga nisbatan ijodiy yondashuvni talab etadi. O'quv faoliyati sub'ektlarida bunday yondashuvni qaror toptirish bir necha shartlar asosida kechadi. Chunonchi:

- Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari hamda o'quvchilarining shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari, ularning mohiyati va afzalliklari borasidagi nazariy bilimlardan xabardor bo'lishlariga erishish;

- Dars mashg'ulotlarda maktab o'qituvchilari tomonidan axborot texnologiyalar xizmatidan samarali foydalanishga imkon beruvchi shart-sharoitlarning mavjudligi;

- darslarning (har bir mavzu bo'yicha) muayyan loyiha asosida tashkil etilishiga erishish;

- mashg'ulotlarda o'quvchilar faoliyatining samaradorlik darajasini doimiy ravishda o'rganib borish, natijalarni tahlil etish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash. Zamonaviy jamiyat yosh avlodning ta'lim tizimiga, xususan,

birinchi bosqich - adabiy ta'lim tizimiga yangi talablar qo'yadi. Maktab o'quvchilari uchun yangilangan mazmundagi ta'lim dasturlari yaratildi.

Adabiy ta'lim tizimi samaradorligiga erishish quyidagi tamoyillar asosida faoliyat yuritishni taqozo etadi:

1. Ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv.
2. O'quv faoliyatini olib borishga nisbatan ijodiy yondashuv.
3. Ta'lim jarayonining izchil, uzluksiz va maqsadga muvofiq tashkil etilishi.
4. Ta'lim jarayonining insonparvarlik, demokratik, dialektik va dinamik xususiyatlar kasb etishi.
5. Adabiy ta'limni tashkil etishda o'quvchilarning mustaqil faoliyat yuritishlariga imkon yaratish.
6. Darslarda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish.
7. Adabiy ta'limni tashkil etishda o'quvchilarning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari inobatga olish.

Ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarning eng muhimlaridan biri axborotli texnologiyalar xizmatidan samarali foydalanish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida uslubiy ishlarning mohiyati, pedagoglar bilan uslubiy ishlarning turlarini tashkil qilishning xilma-xilligi va ushbu ishlarni tashkil etish bo'yicha yondashuvlar N.V.Nemova¹, M.M.Potashnik², A.M.Moiseev³ ishlarida yoritib berilgan. M.M. Potashnik zamonaviy uslubiy ishlarga quyidagi

¹ Немова Н.В. Управление методической работой в школе. - М., 1999.

² Поташник М. М. Управление качеством образования. - М.: Педагогическое общество России. 2001.

³ Моисеев А.М. Содержание, формы и организация методической работы. - М., 1987.

ta'rifni keltirgan "...uslubiy ish bu ilm fan yutuqlariga, ilg'or tajribalarga asoslangan hamda o'qituvchini muayyan qiyinchiliklardan kelib chiqqan yaxlit ko'rinishdagi o'zaro bog'liq bo'lgan va har bir o'qituvchining mahoratini o'sishiga yo'naltirilgan chora tadbirlar, xarakatlardir...". Mazkur olimlar uslubiy ish jarayonida o'quvchilar bilan ishlashning shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalaridan foydalanish zarurati haqida so'z yuritishadi.

Shu ma'noda yozuvchi badiiy asarlarini o'rgatish yuzasidan metodist olimlarning qator ilmiy tadqiqotlari mavjud. Jumladan, Q.Yo'ldoshev¹, S.Matchonov,² M.Mirqosimova³, T.Niyazmetova⁴, Q.Husanboyeva⁵, R.Niyozmetova⁶, V.Qodirov⁷ va boshqalarning amaliyotga tatbiq etgan tavsiyalari adabiy ta'limning samaradorligini oshirishda o'z o'rniga egadir.

Q.Husanboyevaning tadqiqot ishi adabiy ta'limda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish yo'llarini nazariy jihatdan asoslash, ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishda mustaqil fikrlashning o'рни va ahamiyatini belgilashga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir⁸. Zero, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayoniga joriy etishdan ko'zlangan maqsad ham o'quvchilarni mustaqil ta'lim olish va erkin fikrlashga

¹ Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: "O'qituvchi", 1996. 152- b.

² Matchonov S. Kitob o'qishni bilasizmi? -T.: "O'qituvchi", 1993.

³ Mirqosimova M. Badiiy tahlil usullari. -T.: RO'MM, 1993. -37 b.

⁴ Niyazmetova T. Adabiyot darslarida mustaqil ishlar. -T.: "O'qituvchi", 1984.

⁵ Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.dok. ...diss. avtoref. -T.: 2004.

⁶ Niyozmetova R. Adabiyot darslarida mustaqil ishlar. -T.: "O'qituvchi", 1984. 64.

⁷ Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar. -T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. - 244 b.

⁸ Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.dok. ...diss. avtoref. -T.: 2004.

rag'batlantirish, ularda bu boradagi ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

Adabiy ta'lim samaradorligini belgilovchi ko'rsatkichlardan biri – bu o'quvchilarda mustaqil, erkin fikrlash qobiliyatining shakllanganligidir. Q.Husanboyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotda o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarni shakllantirishga nisbatan zamonaviy yondashuvning mohiyati yetarli darajada ochib berilgan.

Olima R.Niyozmetova “Adabiy matnni savol-topshiriqlar yordamida o'rganish”¹ maqolasida savol-topshiriqlarni berishning noan'anaviy usullarini tavsiya qiladi. O'quvchilarni faoliyatga undaydigan yo'sinda tabaqalashtirib berilgan savol-topshiriqlar ularning o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir qilishi asoslanadi.

O'zgargan ijtimoiy tafakkur, dunyoni idrok etish tarzi adabiyotga munosabat va uning talqin etilishiga ta'sir etmay qolmaydi. Shu bois insoniy faoliyatning eng oliy ko'rinishi bo'lmish adabiyotni o'qitishdan ko'zlangan maqsad ham yangilandi. Bu esa darsni uyushtirishga mutlaqo yangicha yondashuvni talab etadi.

Xususan, adabiyot darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini o'rganish alohida yondashuv, jiddiy qayta ko'rib chiqilishga muhtoj.

Adabiyot darslarida adib va shoirlar ijodini o'rganish masalalari oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma sifatida yozilgan “Adabiyot o'qitish metodikasi” kitobida kengroq yoritilgan. Unda o'qituvchining leksiyasi

¹ Niyozmetova R. Adabiy matnni savol-topshiriqlar yordamida o'rganish. // Kasb-hunar ta'limi. 2005. 6-son. 17-b.

9-10- sinflarda matnni tahlil qilishning asosiy metodlaridan biri ekanligi, o‘qituvchi, albatta, doston syujetini to‘liq so‘zlab berishi zarurligi alohida uqtirilgan. O‘qituvchi adib hayoti va ijodini to‘liq so‘zlab bergach, o‘quvchilar doston matnining nasriy bayonini uyda o‘qib kelishlari, so‘ng darslikda berilgan savollar asosida suhbatga tayyorgarlik ko‘rishlari ta’kidlangan¹. Ko‘rinib turibdiki, bu yondashuv o‘sha davr metodikasi holatidan kelib chiqqan bo‘lib, metodika ilmi va o‘qitish amaliyotining bugungi talablariga zid keladigan anchagina jihatlarga ega. Agar darslik mualliflarining aytganlariga amal qilingudek bo‘lsa, o‘quvchilar shoir yoki adiblar asarlarining matni bilan bevosita tanishmaydilar, uning buyuk badiiy tarovatidan bahrasiz qoladilar va faqat asardagi g‘oya hamda qarashlarnigina o‘zlashtiradilarki, barkamol shaxs tarbiyalashga qaratilgan adabiy ta’lim uchun bu mutlaqo yetarli bo‘lmaydi. Fikrimiz dalili sifatida pedagogika fanlari nomzodi G.Rahimova² tadqiqotiga murojaat etsak. Olima 5-sinfda Navoiyning “Hotam Toyi” hikoyatini quyidagicha reja asosida o‘rgatishni tavsiya qiladi:

1. O‘qituvchining qisqacha kirish so‘zi.
2. Hikoyani o‘qish (O‘qituvchi o‘qiydi).
3. O‘quvchilar uchun tushunish qiyin bo‘lgan so‘z va ifodalarga izoh berish.
4. Hikoyani o‘quvchilarga o‘qitish.

1. S.Dolimov, H.Ubaydullayev, Q.Ahmedov. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -T.: “O‘qituvchi”, 1967. –448 b.

2. Rahimova G .Alisher Navoiy hayoti va ijodini sakkiz yillik o‘zbek maktablarida o‘rganish. Ped. fan. nom... diss. -T.: 1966. 55- b.

5. Matn tiliga yaqinlashtirib qayta hikoya qilish.

Guvohi bo'lganingizdek, maktab amaliyotida asarlarni o'rganishning bor-yo'g'i ikki-uch mashg'ulot qolipigina mavjud. Asar o'rganilayotganda oldin o'tilgan mavzu takrorlanadi, ya'ni uy vazifasi tekshiriladi, adibning hayot va ijodi batafsil bayon qilib beriladi, agar biror asardan parcha yodlashga berilgan bo'lsa, o'quvchilar bir-bir turg'izib aytiriladi, yodlamaganlarga tanbeh beriladi. Bu tadbirlarga o'rtacha hajmli bir she'rni tahlil qilishga zo'rg'a ulguradigan 45 daqiqalik mashg'ulotning yarmi sarf etiladi. So'ng yangi mavzuga qo'l urilib, o'qituvchi adibning hayoti va ijodini so'zlab beradi. Keyin o'rganilayotgan asarni avval o'qituvchi, keyin bir necha o'quvchi darslikdan ifodali o'qishga harakat qiladi.

Epik yoki liro-epik asarlarni o'rganishda esa yuqorida qayd etilgan qolipdagi kabi uy vazifasi so'ralgach, o'qituvchi syujetni gapirib beradi. Keyin o'zi o'qiydi yoki o'quvchilarga o'qittiradi. Asardagi obrazlarga to'xtalib, ularning yaxshi yoki yomon ishlari muhokama qilinadi. Ko'rinadiki, bu darslar bir qolipda va zerikarli o'tadi.

Metodist olim V.Qodirov o'zining "Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar"¹ monografiyasida mumtoz adabiyotni o'rganish borasidagi badiiy-estetik muammolarni yangicha hal qilishga erishgan. Xususan, "Xamsa"ga kirgan dostonlarni o'rganish yuzasidan yangi qarash va tavsiyalar beradi. Olim epik asarlarni sun'iy ravishda qismlarga taqsimlamay, yaxlit bir butunlik, mantiqiy uyg'unlikda o'rganish yo'llarini ko'rsatadi hamda asarlarni badiiy-ramziy zaminda

¹ Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar. –T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. - 244 b.

tahlil qilish, ularda ko'tarilgan muammolarni zamonaga bog'lash, o'quvchini epik asarlarning qahramonlariga ergashishga odatlantirish usullariga to'xtaladi.

O'quvchi yozuvchi va shoirlar asarlari olamiga chuqur kirgani sari o'zida shaxslik sifatlarini kashf eta boradi.

E.Abduvalitov¹, X.Axmedova², D.Babayeva³, O.Musurmonova⁴, A.Muxsiyeva⁵ va boshqa pedagog-olimlarimiz tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy metodik ishlarni tashkil etish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqotchi E.Abduvalitovning fikriga ko'ra, "adabiy ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash ma'lum qolip asosida fikrlashni emas, balki umumiy yechimga xilma-xil ijodiy izlanishlar orqali kelishni taqozo etadi. Asosiy maqsadga erishish faqat tushuntirish va aniqlash jarayoni bilan chegaralanmaydi". Muallifning qayd etishicha, adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlash ushbu jarayonda quyidagi harakatlarni samarali yo'lga qo'yish hisobiga kechadi:

1. Adabiy mavzu haqida ma'lumot berish, asar syujetida muhim o'rin tutgan lavhalarni ajratib ko'rsatish.

2. Mavzu bayonida aniqlikka erishish (sanalar, voqealar, davrlar va hokazo).

3. Qiziqtirgan mavzularga oid lavhalarni bayon etish.

¹ Abduvalitov E. Yangi pedagogik texnologiyalar muammolari. Adabiyot darslarida yangi pedagogik texnologiya //Til va adabiyot ta'limi j. - 2001. №1.

² Bolaga yo'naltirilgan ta'lim dasturini tashkil etish. //X.Axmedova, D. Raximova. -T.: 2012. - 262 b.

³ Babayeva.D.R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi", Darslik, -T.: 2018. Babayeva.D.R. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi", O'quv qo'llanma, -T.: 2016.

⁴ Muxsiyeva A. "Oila pedagogikasi", O'quv qo'llanma. -T.: 2018.

⁵ Rivojlantiruvchi o'yinlar. Развивающие игры. Tuzuvchilar: F.Vaxabova, D.Zaynutdinova. 2009.- 72 b.

4. Adabiy mavzuning asosiy mazmuni haqida ma'lumot berish.
5. Badiiy matnlardan olingan parchalarga sarlavha topish.
6. Badiiy matndagi qiziqarli epizodlarni tanlash¹.

Ayni o'rinda muallif mazkur harakatlarning kim tomonidan bajarilishi va ushbu harakatlarni amalga oshirishda qanday jihatlariga e'tibor berilishi zarurligiga e'tiborni qaratganida pedagogik texnologiyalarning mohiyati, ahamiyati yanada oydinlashgan bo'lar edi.

Ilmiy manbalarda taqdim etilgan tushunchalarni tahlil qilish bizga maktabda sifatli zamonaviy ta'lim ishlarini olib borishga yo'naltirilgan bir-biriga bog'liq bo'lgan tadbirlarning yaxlit tizimi sifatida tushunishga imkon beradi.

Ilmiy manbalarning tahlili asosida shakllangan nazariy qarashlar va o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalariga tayangan holda quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- Umumiy o'rta ta'lim maktablarida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalar (zamonaviy o'qitish usul va vositalari)ni qo'llash o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi;

- maktabda adabiy ta'limni zamonaviy tashkil etish bugungi talablar darajasida tashkil etilmagan;

- shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari o'quvchilarni ta'lim jarayonining ijrochisiga aylantirganligi bois adabiy ta'lim samaradorligi oshadi;

- adabiy ta'limda o'quvchilarning ruhiyati, qalbi, hissiyotlari olamini shakllantirish diqqat markazida turishi kerak.

¹ Abduvalitov E. Yangi pedagogik texnologiyalar muammolari. Adabiyot darslarida yangi pedagogik texnologiya //Til va adabiyot ta'limi j. - 2001. №1. - 4-6-b.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosalarga kelish mumkin:

1. Adabiy ta'lim samaradorligiga erishishning eng maqbul yo'li – bu o'qitish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarni qo'llash sanaladi.

2. Adabiy ta'lim samaradorligi o'qituvchilar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiya nazariyasi asoslari borasidagi nazariy va amaliy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga bog'liq.

3. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish yuqorida bildirilgan shartlar asosida kechadi.

ADABIYOT DARSLARIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TEXNOLOGIYALARINING O'ZIGA XOS PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

YUNESKO tomonidan Butun dunyo bo'ylab o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida barcha davlatlar o'zlarining ta'lim tizimlarini muqobillashtirishlari lozim degan fikrga to'xtalib, ta'lim tizimi zamonaviy talablarga to'liq javob beradigan tizim bo'lishi shart degan xulosaga kelishdi.

Adabiy ta'limning vazifasi sifatida: “oddiy o'quvchidan kitobxon o'quvchi, kitobxon o'quvchidan o'qiganlarini anglaydigan o'quvchi, anglaydigan o'quvchidan tahlil qiladigan o'quvchi, tahlil qila oladigan o'quvchidan muayyan asar haqidagi fikrini og'zaki va yozma tarzda

qiynalmay ifoda eta oladigan o‘quvchi tarbiyalashdir”, deb belgilab qo‘yilgan.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga tayyor bilim berish emas, balki ularni har qanday hayotiy vaziyatda o‘ziga kerakli yo‘lni topa oladigan shaxslar sifatida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda tayyor bilim faqat standart holatlardagina yaroqli bo‘lishi, odam esa deyarli hamisha turli-tuman kutilmagan sharoitlarda hayot kechirishga mahkum ekanligidan kelib chiqib ish ko‘rilmoqda.

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir¹.

O‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarini qo‘llash hozirgi pedagogika fani va amaliyotida alohida dolzarblik kasb etib bormoqda. Ta’lim jarayoniga yangi g‘oyalarning kirib kelishi pedagogik innovatsiyani anglatadi.

Demak, pedagogik innovatsiyalashuv ta’lim jarayonining yangi metodik bilimlar bilan to‘xtovsiz boyitilishini, ta’limga qo‘yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning jahon talablari darajasida bajarilishini taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik amaliyotda shunday ta’lim modellari yaratildiki, ular ma’lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko‘zlangan ta’lim maqsadlariga erishishni kafolatlash bo‘yicha keng imkoniyatlarga egadir.

¹ Mirziyoyev Sh..M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. 71-b.

Yurtimizda o‘zbek xalq ertaklarining audio varianti yaratildi. Loyiha “Bolalik kunlarimda” deb nomlanib, “Telegram” ijtimoiy tarmog‘idagi @bolalikkunlarimda kanaliga o‘zbek va rus tillarida joylashtirib borilmoqda¹.

Hozirgi kunda mamlakatimizda rivojlanayotgan dunyo ta’limi fazosiga qo‘shilish imkoniyatini beradigan yangi ta’lim tizimi tarkib topmoqda. Milliy pedagogika fani erkin shaxsni tarbiyalash qonuniyatlari, shakl va metodlari, mazmun va tamoyillarini o‘rganadi. Interfaol ta’lim usullari qo‘llangan o‘quv jarayonida ham an’anaviy sinfdars tizimi saqlanadi. Faqat unda o‘rgatishning tashkiliy shakllari, usullari takomillashadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi turli mamlakatlardagi jumladan Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson (1987), Kaliforniya universiteti professori J.Aronson (1978), Izroildagi Tel-Aviv universiteti professori SH.Sharan (1988) tomonidan ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda adabiy ta’lim amaliyoti o‘qitishning samaradorligini ta’minlovchi “Guruhlarda ishlash”, “Aqliy hujum”, “Burchaklar usuli”, “Rolli o‘yin” kabi bir qancha interfaol usullar bilan boyidi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalardan bo‘lmish hamkorlikda o‘qish o‘quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta’lim olishini ko‘zda tutadigan metoddir². Hamkorlikdagi

¹.Bahodirova N. Eshitib anglash boshqacha. “Yoshlar ovozi” gazetasi. 2019. 15-son.

² Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari (trenerlar uchun qo‘llanma). Ishchi guruhi rahbari: Ikromov A. -T.: 2002. 47-b.

ta'limning bir ko'rinishi kichik guruhlariga bo'linganda uning a'zolari 6-7 kishi bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki hozirda sinflarda o'quvchilar soni 30-35 nafarni tashkil etmoqda. Guruhda ishtirokchilar sonining ko'pligi guruh a'zolarining faol ishtiroklariga halaqit beradi; guruh tarkibini tanlashda, albatta, har bir guruhga "a'lo", "yaxshi" va "qoniqarli" o'zlashtiruvchi o'quvchilar teng miqdorda kiritilishi talab qilinadi. Hech qachon "kuchlilar" va "kuchsizlar" guruhi tuzilmasligi lozim; guruh a'zolari guruhning o'zlashtirishiga qarab, yangilanib turishi kerak.

Kichik guruhlarda ishlashda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi:

- guruhlariga aniq ko'rsatmalar berish;
 - ishtirokchilar topshiriqlarni to'liq bajarishi uchun yetarlicha bilim va ko'nikmaga ega ekanligiga ishonch hosil qilish;
 - guruhlarning qoidani buzmagani holda ishlashini ta'minlash;
- guruhda kechayotgan har bir jarayonni rag'batlantirib borish.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish asosan o'quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hisoblanadi.

Izroil va Yevropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish yuqorida qayd etilganlar bilan bir qatorda, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash, loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadi.

Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970-yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, G'arbiy Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Izroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlangan.

Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishiga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanish maqsadida quyidagilarni:

- qaysi mavzularni hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib o'rganish mumkinligini aniqlashi va mazkur darslarni taqvim-rejada belgilashi;

- ushbu mavzu bo'yicha o'quvchilarga tavsiya etiladigan o'quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko'rsatmalarni tayyorlashi;

- hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanib o'tiladigan dars turi, dars strukturasi va borishini loyihalashi;

- o'tgan va yangi mavzular yuzasidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish uchun test topshiriqlarini tuzishi kerak.

Mazkur metodlardan foydalanganda shuni nazarda tutish kerakki, o'quvchilar o'z sheriklari bilan hamkorlikda o'quv topshiriqlarni to'g'ri bajarishlari barobarida guruh a'zolarining faolligi, hamkorlikning vujudga kelishi, ular o'rtasidagi muloqotda muloqot madaniyati tamoyillariga amal qilinishi ham hisobga olinadi.

Shunday qilib, guruh a'zolari bir vaqtning o'zida ikkita topshiriqni bajaradi:

1. Akademik topshiriq - bilish va ijodiy izlanish orqali o'quv topshiriqlaridan ko'zlangan maqsadga erishish;

2. Ijtimoiy-psixologik topshiriq - dars davomida yuksak muloqot madaniyatiga ega bo'lish, odob osoyishtaligini saqlash;

O'qituvchi har ikkala topshiriqning yuqori saviyada bajarilishini nazorat qiladi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish metodlaridan foydalanishi uchun ushbu texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni, o'quvchilarning mustaqil ishlari, o'quv bahsi va munozaralarni samarali tashkil etish yo'llarini egallagan, o'quvchilarda esa darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o'z fikrini qisqa va aniq bayon etish, fikrlarni asoslash va dalillash, mantiqiy fikr yuritish, o'quv bahsi va munozaralarda faol qatnashish ko'nikmalari shakllangan va ongli intizom vujudga kelgan bo'lishi lozim.

Ruhshunos J. Piaje o'quvchi kichik guruhlarda ishlaganda faolligi sezilarli darajada oshishini aytib o'tgan. Bolalar to'rt nafardan olti nafarga qadar kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linganda, ularning faolligi sezilarli darajada ortishi fanda isbotini topgan. Shuning uchun ham sinfdagi bolalar qobiliyati, o'zaro muvofiqligi hamda kelisha olish xususiyatlariga ko'ra kichik guruhlariga ajratilib, ular oldiga o'quv muammosi qo'yilsa, bolalarning aqliy faoliyati tezlashadi.

Demak, inson intellektining o'sishi nazariyasi Jan Piaje tomonidan shakllantirilgan bo'lib, har qanday shaxsning aqliy taraqqiyoti boshqa shaxslarning ongi bilan bo'lgan bevosita yoki bilvosita muloqot natijasida ro'y beradi. Bu qarashga muvofiq o'zaro munosabatga kirishgan odamlar o'rtasida, albatta, muayyan ziddiyat kelib chiqadi va bu ijtimoiy konfliktni hal etish zaruriyati odam tafakkurining rivojlanishiga olib keladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining bir nechta metodlari mavjud:

- 1) jamoada;
- 2) kichik guruhda;
- 3) juftlikda.

Jamoada o'qitish (R.Slavin) da o'quvchilar teng sonli ikkita jamoaga ajratiladi. Har ikkala jamoada bir xil topshiriq bajariladi. Jamoa a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishiga e'tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish bo'yicha ko'rsatma berilishi yetarli emas. O'quvchilar o'rtasida tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi jamoaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishga intiladi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish (R.Slavin 1986). Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test topshiriqlari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

Ulug' olmon pedagogi A. Disterveg: **“Yomon o‘qituvchi haqiqatni yetkazib beradi, yaxshi o‘qituvchi esa haqiqatni o‘quvchilar bilan birga kashf etadi”**¹, - degan mulohazalari ayni haqiqat ekanligiga amin bo‘lamiz.

Hamkorlikdagi ta'lim samarali bo‘lishi uchun kichik guruh a'zolari bajaradigan vazifalarni belgilashga bag'ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari mavjud².

Ish taqsimotida guruhning har bir a'zosiga bir yoki ikkita vazifa tushishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Kichik guruhdagi rollarning nomlanishi ham, ular qiladigan ishlar ham aynan shu jadvaldagiday bo‘lishi shart emas. Umumiy o‘rta ta'lim maktablari sharoiti va muayyan o‘quv guruhidagi vaziyatdan kelib chiqqan holda ularga kerakli o‘zgarishlar kiritish mumkin.

Sinfdagi o‘quvchilardan kichik guruhlar tashkil etishda: 1. Guruhlar o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. 2. Guruhga rahbarlik qila oladigan o‘quvchi va guruh a'zolari oldindan aniq belgilab olinadi. 3. Har bir guruhga zehnli va qobiliyatli hamda bo'shroq o'zlashtiradigan o‘quvchilar, imkon qadar, teng taqsimlashga harkat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a'zolar bilan to'ldiriladi va vazifalari belgilanadi.

4. Guruh rahbari va a'zolariga vazifalari tushuntiriladi. 5. Har bir guruh doira shaklida o'tirishi, guruhning har bir a'zosi bir-birini ko'rib turishi shart. 6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalariga e'tibor berib boriladi. Yaxshi g'oya egalari rag'batlantiriladi.

¹ Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения. Модуль 2. –Т.: 2007. С. 56.

² Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения. Учебное пособие. Модуль 4. –Т.: 2007. С. 47., Гин А. Приемы педагогической техники. – Москва: “Вита”, 2000. С. 51.

Bunday guruhlarni tashkil etishdan avval: o'quvchilarning shu ishni bajarishga bilim va malakalari yetarliligiga ishonch hosil qilish; guruhlarga aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish; vazifaning bajarilishi uchun yetarli vaqt ajratish; o'z vazifasini vaqtdan ilgari bajargan guruhning bandligini ta'minlashga tayyor bo'lish; qo'yiladigan masala murakkab bo'lganda guruh a'zolari sonini kengaytirish; baholash va mukofotlash jarayonining guruh a'zolariga ta'siriga tayyorlanish; kuchli guruhlarni mukofotlash; bajarilgan ish natijasini qanday topshirish yo'llari haqida o'ylab ko'rish va ma'lum qilish; jamoaning erkinligiga imkoniyat yaratish kerak bo'ladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarni o'rgatishga bag'ishlangan mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Quyida shu usullarning ayrimlariga xos xususiyatlarga qisqacha to'xtalamiz.

"6x6x6" adabiy ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan metodlarning yana biridir. Mazkur metoddan adabiy asarlar ustida ishlashda foydalanishda adabiyot o'qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarni oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metodda sinfdagi o'quvchilar oltita-oltitadan olti guruhga bo'linadi. Jami 36 o'quvchi ishtirok etadi. Guruhlarga muayyan nomlar beriladi. Dars mavzusi e'lon qilinib, ma'lum vaqt belgilanadi. O'quvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, o'z munosabatlarini bildiradilar. Mavzu bo'yicha belgilangan vaqt yakunlangach, o'qituvchi guruhlarning a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga

bayon etadi. Yangi guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rganadilar, unga o'z munosabatlarini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oralig'ida o'quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o'zlari tomonidan tahlil qilinadi.

Hozirgi paytda respublikamizda yetuk mutaxassislar tayyorlash sifatini yaxshilash bo'yicha qator pedagogik izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlarning aksariyatida pedagog olimlar, amaliyotchi va tadqiqotchilarning diqqat e'tibori o'qitish maqsadi va uning natijalariga erishishga, ta'limni texnologiyalashtirish, *ko'rgazmali multimedia vositalari* orqali sifatli o'qitishni tashkil etishga, shuningdek, ilmiy asoslangan zamonaviy o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishga yo'naltirilgan.

Adabiyot o'qituvchisi 11-sinfda shoir ijodi haqida ma'ruza qilishdan oldin o'quvchilarga uning V-VI sinflarda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'rganilishi lozim bo'lgan asarlarini eslatadi. Chunonchi, shoirning 11- sinfda ***“Ruhlar isyoni”*** dostonini o'rganishga kirishishdan oldin o'qituvchi 5- sinfda o'tilgan “Nido” dostoni, 6-sinfda o'rganilgan “O'zbekim” qasidasini eslatadi.

11-sinfda E. Vohidov ijodini o'rganishdan oldin o'qituvchi “Erkin Vohidov hayotidagi muhim sanalar” deb nomlangan ko'rgazmani namoyish etish bilan boshlasa, o'quvchilar shoirning adabiy va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi mavqei, o'z davrida ilg'or fikrlar targ'ibotchisi bo'lganligi, uning dunyoqarashi haqida ma'lum tasavvurga ega bo'ladilar. Bunda sinfda shakllantirilgan guruhlariga muhim sanalar aytiladi. O'quvchilar bu sanada qanday voqea sodir bo'lganini aytishlari

kerak. Bu jarayon qisqa vaqt davom etishi lozim, aks holda shoir ijodiga ajratilgan vaqt yetmay qolishi mumkin.

Asarni o'rganishga kirishishdan oldin o'qituvchi E.Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonini yozilish tarixiga oid quyidagi ma'lumotlar bilan boshlagani ma'qul. "Ruhlar isyoni" dostoniga bengal shoiri Nazrul Islomning hayoti, fojiali qismati asos qilib olingan. "Otashin bengal shoiri Nazrul Islomning qahramonona va fojiali taqdiri ko'pdan meni hayajonga solib kelar, u haqda biror narsa yozish xayolida yurardim", deb yozadi muallif. Shu tariqa u shoir hayotini sinchiklab o'rgandi, uning hayotiga oid faktlar bilan tanishdi.

So'ng o'quvchilar bilan asar tahliliga kirishiladi. Asarni tahlil qilishda qo'llanilgan usullar o'quvchilarning yakka va o'zaro birgalikdagi faoliyati asosida amalga oshirilishi lozim.

So'nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audiomagnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Ayni o'rinda elektron ko'rgazmali qurollarning adabiy ta'lim samaradorligini oshirishdagi rolini ham alohida qayd etib o'tmoqchimiz. Muayyan mavzularni o'rganish maqsadida tayyorlanayotgan elektron ko'rgazmali qurollar ma'lum talablarga muvofiq yaratilishi zarur. Xususan:

1. Elektron ko'rgazmali qurol (yoki darslik)lar o'quvchilarning yoshi va qiziqishlariga mos holda yaratilishi zarur.

2. O‘quvchilar tomonidan qiziqish bildirilayotgan asar voqealarini ifodalovchi surat, tasvir yoki shakllarning ilova qilinishi mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

3. O‘rganilayotgan mavzuga mos keluvchi yordamchi materiallar (tasvir, surat, shakl, jadval va hokazolar), badiiy bezaklar o‘quvchilar e’tiborini asosiy maqsaddan chalg‘itmasligi, aksincha, ularning faoliyat yo‘nalishini aniq belgilab berishga yo‘naltirilishi zarur.

4. Elektron ko‘rgazmali materiallar o‘quvchilar tomonidan kompyuterni oson boshqarish asosida o‘zlashtirilishi, zarur o‘rinlarda kuy, qo‘shiq, animatsiyalar bilan boyitilishi lozim.

Ta’lim jarayonida elektron ko‘rgazmali materiallardan foydalanish o‘zining ijobiy natijasini beradi. Jumladan, E.Vohidovning 11-sinfda o‘rganilishi mo‘ljallangan **“Ruhlar isyoni”** dostonini o‘tish jarayonida kompyuterda quyidagi fayllar ochiladi: *“Asar matni”*, *“Savol-topshiriqlar”* va *“Muammoli vaziyat”*.

“Asar matni” fayliga **“Ruhlar isyoni”** dostoni asosiy mazmunining qisqacha matni kiritiladi. Dastlab o‘quvchilarga ushbu fayl bilan tanishib chiqish vazifasi yuklanadi. O‘quvchilar tomonidan ushbu vazifa bajarilgandan so‘ng, ularga “Savol-topshiriqlar” fayliga kirish va unda o‘z ifodasini topgan savol-topshiriqlarni bajarish aytiladi. Mazkur faylda asosan, asarning mohiyatini ochib beruvchi savol va topshiriqlar kiritilgan bo‘lib, ularni bajarishda barcha o‘quvchilarning imkoniyatlari inobatga olinadi.

O‘quvchilar tomonidan savol-topshiriqlar bajarilgandan so‘ng ulardan “Muammoli vaziyat” fayliga kirish so‘raladi. Ushbu fayl orqali

o‘quvchilar e’tiboriga asar yuzasidan muammoli vaziyatlar kiritiladi hamda o‘quvchilarning mazkur vaziyatlarning yechimini topishga qaratilgan faoliyatlari nazorat qilib boriladi. Eng yaxshi yechim aniqlanadi hamda mashg‘ulot so‘nggida yakuniy xulosalar chiqariladi.

“Bemor” hikoyasini o‘rganishda, timsolarga – Sotiboldi timsoliga tavsif berishda esa **“KZIX”** (Kuchli jihatlar, zaif tomonlar, imkoniyatlar, xavf-xatar) metodidan foydalanilsa, yaxshi samara beradi. Chunki Respublikamizning til-adabiyot o‘qituvchilari ushbu metodning yaxshi samara berishini isbotlab, ilmiy jurnallarda dasr ishlanmalarini e’lon qilmoqdalar. Ushbu metodni qo‘llashdan oldin o‘quvchilar to‘rtta guruhga ajratiladi, har bir guruh tavsifga olinayotgan sub’ektning bir tomoni haqida ma’lumot beradi (boshqa guruhlarga qo‘shimcha qilish imkonini berish mumkin). “Bemor” hikoyasidagi Sotiboldi timsoliga tavsif berish uchun qo‘llangan **“KZIX”** metodi quyidagi bajarilishi kutiladi:

K (kuchli jihatlari) – Sotiboldi bilagida kuchi bor, 25-35 yoshlar chamasidagi (agar uning bitta qiz farzandi borligi inobatga olinsa) kishi.

Z (zaif tomonlari) – kambag‘al, qo‘lida arzugulik kasbi yo‘q. Nochorlikdan, kambag‘alikdan chiqishning aniq yo‘llarini bilmaydi: sodda, ishonuvchan.

I (imkoniyatlar) – xalqimizda izlagan imkoniyat topadi, o‘limdan boshqasining chorasi bor, kabi hikmatli so‘zlar yuradi. Sotiboldi o‘z xo‘jayini Abdug‘aniboyni insofga chaqirishi, undan moddiy yordam olishi yoki atrofidagi odamlardan ko‘mak so‘rashi mumkin edi-ku. Sotiboldining birorta ham do‘sti yo‘qmikan?!

X (xavf-xatar) – yosh qizchasining onasiz qolishi, oilada ayol – ona bo‘lmasligi; bemorni tuzatish uchun olingan qarz oila kelajagini ham barbod qilishi, chunki qarz yangi qarzlarning tug‘ilishiga sabab bo‘lishi...

O‘quvchilarning asar yuzasidan chuqurroq fikr yuritishlari, teran mushohada orqali hayot qiyinchiliklarini idrok etishlari, o‘zlarida kurashuvchanlik, sobitlik, tushkunlikka tushmaslik kabi sifatlarni shakllantirishlari, eng muhimi, bugunning qadriga etib, istiqbol uchun o‘qish, izlanish payida bo‘lishlari – dars maqsadining reallashuviga asos bo‘ladi.

“Muloqot” o‘quv-munozara shaklida o‘tkazishga mo‘ljallangan usul bo‘lib, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, o‘z fikrlarini erkin bayon etishga yo‘naltiradi hamda ularda muloqot madaniyatini shakllantiradi. Ushbu usul ham hamkorlikka asoslanadi, ya’ni mashg‘ulotlar o‘quvchilarning kichik guruhlarida bo‘lishini ko‘zda tutadi. Ushbu usulni adabiyot darslarida qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning asarga bo‘lgan munosabatini aniqlash, mustaqil holda umumiy fikrga kelishlariga va to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin bahslashishlariga sharoit yaratish hisoblanadi.

O‘quvchilarni toliqtirmaslik uchun ularga qiziqarli bo‘lgan o‘yin tashkil etish mumkin. Masalan, **“Oltin toj” o‘yini** quyidagicha tashkil etiladi.

“Toj o‘yini”dan katta mavzu yoki bir bo‘lim tugagandan so‘ng mustahkamlash, umumlashtirish darslarini tashkil etishda foydalanish mumkin. Bunga o‘qituvchi avvaldan tayyorgarlik ko‘radi. “Tojga” va

unga oʻrnatiladigan asar yoki qahramon nomlari yetarlicha tayyorlanadi. Bu “Asar nomini toping”, “Qahramon nomini ayting” va h.k. tarzda boʻlishi mumkin.

Bir oʻquvchi doskaga chiqarilib, unga koʻrsatmasdan biror asar yoki qahramon nomi yozilgan toj kiygiziladi. Unga topshiriq qisqacha tushuntiriladi. Sinfdagi oʻquvchilar uni koʻrib turadilar. Toj kiygan oʻquvchi sinfda oʻtirgan oʻquvchilarga ular “ha” yoki “yoʻq” deb javob berishlari mumkin boʻlgan savollarnigina berishi mumkin. Masalan, tojga biror qahramon nomi yozilgan boʻlsa, shunday savollar berilishi mumkin. Asarmi?, Qahramonmi?, “Susambil”danmi, “Oq kema”danmi?

Shunda oʻquvchilar faqat “ha” yoki “yoʻq” javobini beradilar.

Sinfda oʻtirgan oʻquvchilar ortiqcha maʼlumot va tushuntirishlar bermasliklari kerak. Bir darsda bir qancha oʻquvchilar navbat bilan yoki bir vaqtda “toj oʻyini”da ishtirok etishlari mumkin. Shundan keyin oʻqituvchi oʻquvchilarni baholash uchun test topshirigʻini berishi mumkin. Masalan:

1. “Oq kema” asarida “tuya”, “boʻri”, “egar”, “tank”larga oʻxshatilgan narsa nima edi?

- A. Rasm.
- B. Hayvon.
- S. Mashina.
- D. Harsang.

2. Quyidagi soʻzlarni “Oq kema” asarining qaysi qahramoni aytgan?

“Ming yillar tinch-totuv yashaganlar. Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutishmaydi. Ularga o‘z ona tillarida so‘zlash va kuylash yoqimli bo‘ladi”.

A. Mo‘min.

B. Botir Qulchi.

S. Ona bug‘u.

D. Bo‘key.

3. Bug‘uboy avlodlarida takabburlik qachondan boshlandi?

A. Bug‘ular Issiqko‘lni tark etishgach.

B. Bug‘uboy avlodlarining oshib-toshib ketgan mashhur boyi o‘lgach

S. Issiqko‘lni dushmanlar bosib olgach

D. O‘rozqul tomonidan bug‘u o‘ldirilgach

E. Boyning qabriga bug‘u shoxi o‘rnatilgach

4. Quyidagi fikrni “Oq kema” asarining qaysi qahramoni aytgan?

“.....qadimgi odamlardan qolgan gap bor: boylik, takabburlikni, takabburlik esa telbalikni tug‘diradi, pul hukumron bo‘lgan joyda ezgu so‘zga o‘rin yo‘q....”

A. Baymoq kampir.

B. Mo‘min chol.

S. Shoxdor ona bug‘u.

D. Botir Qulchi.

So‘ng eng ko‘p ishtirok etgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

O‘quvchilar asardagi har bir qahramonga hos insoniy sifatlarning qandayligini matnga tayangan holda mustaqil yozadilar (jadvalga solib yozsalar ham bo‘ladi).

Yuqoridagi topshiriqning davomini hamda “Qissadagi bola timsoliga tavsif” mavzusida taassurot yozish uyga vazifa etib topshirish asosida mavzuni mustahkamlash mumkin.

Demak, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalari ***insonparvarlik, hamkorlik, erkin tarbiyalash*** kabilar asosiy printsiplardir.

Professor Q. Husanboyeva o‘z tadqiqot ishida L.Tolstoyning shunday fikrlarini keltiradi. “L. Tolstoyning fikricha, bolalarda ijodkorlikni o‘stirish uchun ularni ijodga undovchi hayotiy omil va kerakli material bilan ta‘minlash zarur. Bolaga erkinlik berish, ***“uni o‘qitishni bas qilish”*** shaxs shakllantirishda juda katta samara beradi”¹.

Milliy pedagogika fani ham erkin shaxsni tarbiyalash qonuniyatlari, shakl va metodlari, mazmun va tamoyillarini o‘rganadi.

Dars jarayonining bunday shakl, metod va vositalar asosida tashkil etilishi o‘quvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishini ta‘minlabgina qolmay, ularda kompetentsiyaviy yondashuvlar, o‘z qarashlarini ilgari surish, ularni dalillash, shuningdek, tengdoshlari tomonidan bildirilayotgan g‘oyalar mohiyatini tahlil etish, ularni mazmunan boyitish, umumiy xulosalarga kelish imkoniyatini ham yaratadi.

¹ Husanboyeva Q. Adabiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.dok....diss. –T.: 2004. 49- b

Xulosa qilib aytganda, shaxsga yoʻnaltirilgan oʻqitish texnologiyalar oʻquvchilardan tizimli tafakkur yuritishni, u esa tadqiqotchilik koʻnikmalarini, bu oʻz navbatida, birgalikdagi taʼlimni, bu har bir oʻquvchidan ijodiy fikr qilishni talab etadiki, shu tariqa oʻquvchilar oʻzlarini oʻzlari oʻqitadigan darajaga yetadilar.

Adabiyotlar tahlili va adabiy taʼlim amaliyotini kuzatish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Zamonaviy sharoitda taʼlim jarayonining barcha imkoniyatlariga koʻra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yoʻnaltirilishi talab qilinmoqda. Oʻzida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan taʼlim shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim deb nomlanadi.

2. Shaxsga yoʻnaltirilgan texnologiyalar insonning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shaxs shakllanishining asosini **bilim, malaka, koʻnikma** tashkil etadi.

2. Shaxsga yoʻnaltirilgan oʻqitish texnologiyalari oʻquvchilarni faollashtiradi, ular shoir va yozuvchilarning asarlarini oʻzlari mustaqil oʻzlashtirishga kirishadilar, oʻquvchilar oʻzaro bahs-munozara asnosida asarlarning mohiyatini teranroq anglaydilar.

3. Oʻqilgan badiiy asarni oʻquvchilar bilan birgalikda mufassal tahlil qilish, asar matni asosida koʻplab hayotiy muammolarga javob topish oʻquvchida oʻz intellektual imkoniyati darajasidagi tanqidiy nazarni shakllantiradi.

4. Hamkorlikda oʻqitish texnologiyasi har bir oʻquvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan

holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishiga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

II BOB. SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM **TEXNOLOGIYALARINING ZAMONAVIY USULLAR** **TIZIMI**

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM **TEXNOLOGIYALARINI O‘RGANISHDA O‘QITUVCHI-** **O‘QUVCHI MUNOSABATINING XARAKTERI**

Ta‘lim jarayonini tashkil etishda imkoniyati o‘rtacha bo‘lgan o‘quvchi me‘yor qilib olinadi, o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi e‘tibordan chetda qoladi. Ta‘lim beruvchi bu jarayonning markazida sub‘ekt sifatida turadi va uni boshqaradi. Bunday holatda o‘quvchi yangi asar, mavzu, ma‘lumotlar oldida majburlik, tobelikni his qiladi.

XVII asrda chex pedagogi Yan Amos Komenskiy tomonidan taklif etilgan an‘anaviy sinf-dars tizimi pedagogik amaliyotga keng tarqalgan va undan mustahkam o‘rin olgan. An‘anaviy maktab sinf-dars tizimi quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Yosh va tayyorgarlik darajasi taxminan bir xil yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan bolalar bir sinfni tashkil etadi.
2. Sinf yagona reja, dastur, dars jadvali asosida ishlaydi.
3. Asosiy mashg‘ulot turi dars hisoblanadi.
4. Darsda ma‘lum o‘quv predmetiga tegishli bir mavzuga doir material ustida ishlanadi.
5. O‘quvchilar faoliyatini o‘qituvchi boshqaradi, har bir o‘quvchining bilim darajasini baholaydi, yil oxirida o‘quvchini sinfdan-sinfga ko‘chirishni hal qiladi.

6. Amaliyotda o'qituvchilardan olingan so'rovnomalar tahlili va amalga oshirilgan tadqiqotlar an'anaviy hamda **shaxsga yo'naltirilgan** ta'lim jarayonlari o'rtasidagi farqli jihatlar nimadan iboratligini aniqlash imkonini berdi.

O'qitish shaxsga yo'naltirilgan (interfaol) usullarda tashkil etilganda, "o'qituvchi – jarayon – o'quvchi" munosabati yuzaga keladi, ya'ni pedagogik jarayonda o'qituvchi bilan o'quvchi bir chiziqda faoliyat olib boradi. O'qitishning interfaol usullari xilma-xil bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi, eng avvalo, o'qituvchidan katta tayyorgarlikni talab qiladi. Ta'limning biror bir yangi usulini tanlash va amaliyotda qo'llashdan oldin o'qituvchi:

- ushbu usulning o'quvchilar yoshi, rivojlanish darajasi, qiziqishlari, aqliy imkoniyatiga mos kelishiga;
- sinf xonasida bimalol harakatlanish maydonining mavjudligiga (ayrim interfaol usullar sinf xonasida o'quvchilarning tez-tez joy o'zgartirishi, harakatlanishini taqozo etadi);
- dars yo'nalishi (maqsadi, turi, mavzusi, mazmuni)ga to'g'ri kelishiga;
- darsdan kutilayotgan maqsadga erishish uchun sarf qilinadigan vaqtga;
- dars uchun zarur bo'lgan didaktik va texnik vositalar mavjudligiga;
- dars jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan chekinishlar, taktikaning o'zgarishiga sabab bo'luvchi vaziyatlarni oldindan sezish, alternativ yondashuvlarni qo'llash kabi holatlarga tayyor bo'lishi lozim.

Masalan, interfaol usullarning mohiyati, amaliy jihat va didaktik imkoniyatlarini umuman izohlagan holda Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini o‘rgatishga tatbiq etish bo‘yicha konkret tavsiyalar berildi¹.

Bugungi kunda kechagidan keskin farq qiladigan dunyoda yashay oladigan yoshlarni tayyorlashga ma’lum miqdordagi belgilangan bilimlarni berish – bosh maqsad, deb hisoblaydigan an’anaviy ta’lim tizimi mutlaqo kifoya qilmaydi. Zotan, uzluksiz evrilishlarga aylanib borayotgan hayotga mustaqil qadam qo‘yayotgan yoshlar mazkur o‘zgarishlarga aqliy va ma’naviy jihatdan tayyor bo‘lmasa, raqobatlar kurashidan iborat dunyoda o‘z gapiga, o‘rni, mavqeiga ega bo‘lmay o‘tib ketishi mumkin. An’anaviy dars asosiy e’tibor o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan, tashkiliy qism, o‘tilganlarni so‘rash, yangi mavzuni yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta’lim modelidir. Ushbu dars markazida o‘qituvchi turadi. Endi uning aksi bo‘lgan holatga nazar tashlasak. Bunda markazda o‘quvchi shaxsi turadi va dars maqsad-mohiyati, uning ijobiy jihatlari quyidagi asoslarga tayanadi:

- o‘quvchilarning o‘qishga ishtiyoqi oshib boradi;
- ilgari egallangan bilimlari inobatga olinadi;
- o‘quvchi tashabbusi qo‘llab-quvvatlanadi;
- bilim amaliyot orqali o‘zlashtiriladi;
- o‘qituvchi — o‘quv materialining o‘quvchilar tomonidan qulayroq o‘zlashtirilishini ta’minlovchi shaxsga aylanadi.

¹ Sariboyeva M. Alisher Navoiy epik asarlarini interfaol usullarda o‘rganish. –T.: “Adib” 2014. -136 b.

Ayrim o'qituvchilar an'anaviy usullardan foydalanishga chek qo'yish lozim, degan noo'rin fikrni bildiradilar. Interfaol usullarni amaliyotga tatbiq etish o'rganib qolingan an'anaviy usullardan batamom voz kechish degani emas, balki o'qituvchining mahorat xazinasini to'ldirish, uni turli yo'nalishlarda ishlashga imkon beradigan ta'lim usullari bilan boyitish demakdir. Bundan tashqari, amaliyotda faqat ikki xilgina metod (ya'ni passiv va faol metodlar mavjud, degan mazmunda) talqinlar kuzatildiki, bu ham to'g'ri emas.

Shaxsga yo'naltirilgan usullarni ta'lim amaliyotiga qo'llab ijobiy natijalarga erishgan o'qituvchi metodik yangiliklarni izlay boshlaydi. Izlanuvchan o'qituvchi faoliyati shu tariqa samarali bo'lib boradi.

Zamonaviy o'qitish usullaridan foydalangan o'qituvchilar o'zlariga qo'yiladigan pedagogik talablarga alohida e'tibor berishlari muhimdir. Pedagogik jarayonning amalga oshirilishi unda qo'llaniladigan usul va vositalarning maqsadga muvofiqligiga ham bog'liqdir.

O'qituvchilardan olingan so'rovnomalar tahlili va amalga oshirilgan tadqiqotlar an'anaviy hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonlari o'rtasidagi farqli jihatlar nimadan iboratligini aniqlash imkonini berdi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining xarakterini, o'qish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish hamda o'quvchilar tomonidan nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi. Dars jarayonida o'qituvchi va

o'quvchi faoliyatining turi, usuli o'rgatiladigan ma'lumotning xarakteriga qarab belgilanadi. Aynan mana shu holat ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi¹.

Adabiyot bo'yicha an'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'rtasidagi farqli jihatlar

<i>Ta'lim jarayoni qatnashchilari holati</i>	<i>An'anaviy adabiy ta'lim</i>	<i>Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim</i>
<i>O'quvchi</i>	<i>Vaziyatga tobe</i>	<i>Mustaqil va o'zini-o'zi nazorat qiladi</i>
<i>O'quvchining hayotiy tajribasi, kechinmasi, asarga bo'lgan munosabati</i>	<i>Qabul qilinadi, tahlil qilinadi</i>	<i>O'qitish manbalaridan biri, ya'ni o'quvchining hayotiy tajribasi o'rganilayotgan asar qahramonini tahlil etishga turtki bo'lib xizmat qiladi.</i>
<i>Asarni o'rganish jarayoniga tayyorgarlik</i>	<i>Yoshi va rivojlanish darajasi hisobga olinadi</i>	<i>Asarga o'quvchining maqsadi, faoliyati va hayotidagi muammolar, yashash tarzi bilan bog'liq holda yondashish ustuvorlik qiladi.</i>
<i>Yo'nalish</i>	<i>Mavzu doirasida fundamental bilimlar berishga qaratiladi.</i>	<i>O'quvchilarga fundamental bilimlar berishdan tashqari, ularning maqsadi, muammolari va ehtiyojiga yo'naltiriladi.</i>
<i>Rag'batlantirish</i>	<i>O'qituvchi belgilaydi va o'quvchiga sinfdagi boshqa o'quvchilarning o'zlashtirishiga nisbatan baho qo'yiladi</i>	<i>Ichki rag'bat uyg'otiladi, ya'ni o'quvchida ma'naviy barkamollik sifatlarining namoyon bo'lishi hisobga olinadi va o'quvchilarning o'z-o'zini baholashiga e'tibor dominantlik qiladi.</i>

Ta'limdagi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usullarning muhim amaliy jihatida shunda ko'rinadiki, u har bir pedagogning o'z imkoniyati

¹ Sariboyeva M. Umumta'lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini interfaol usullarda o'rganish –T.: "Adib" 2014. - 148 b.

darajasida, shuningdek, ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning o'quv faolliklarini oshirish maqsadida tashkil etiladi. Shaxsga yo'naltirilgan metodlar asosida ta'limni tashkil etish, birinchidan, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, ikkinchidan, o'quvchilarning mustaqil o'qib-o'rganishlari, uchinchidan, ularda o'quv materiallarini o'zlashtirishga nisbatan ijodiy va ijobiy yondashuvni qaror topdirish, to'rtinchidan va, eng muhimi, sinfdagi o'quvchilarning bir-birlari bilan hamkorligiga erishish imkonini beradi. Buning ta'sirida o'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish hamda mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati rivojlanadiki, mazkur holat ta'lim sifatini yuksaltirib, samaradorligini oshiradi. Shu bois umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'qituvchilari, jumladan, maktablarning adabiyot o'qituvchilarida shaxsga yo'naltirilgan metodlaridan foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan samarali, maqsadga muvofiq foydalana olish ko'nikmalariga egaligi har bir o'quv mashg'ulotining o'ziga xos, qiziqarli va samarali bo'lishiga olib keladi.

Tajribada ishtirok etgan o'qituvchilarning aksariyati bahs-munozaradan foydalanishlari, ya'ni bu jarayonda o'qituvchining o'rta savol tashlashi va shu savolga berilgan javoblarning tahliliga asosan xulosa yasashi kuzatildi. Shaxsga yo'naltirilgan metodlardan biri sanalmish bahs-munozara mashg'ulotlaridan, asosan, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan materiallarni o'rganishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bahs jamoaviy munozara vositasida

o'rganilayotgan o'quv materialining xususiyati, uning muammolik darajasidan kelib chiqqan holda turlicha ahamiyat kasb etib, pedagogik amaliyotda u konkret ta'limiy vaziyatga muvofiq didaktik tadbir qo'llash imkonini beradi. Garchi o'qituvchiga bahs-munozaralarning natijasi avvaldan ma'lum bo'lsa-da, bu usul o'quvchilarning yangi bilimlarni mustaqil izlash va ularni samarali o'zlashtirishini ta'minlashi bilan e'tiborga loyiq.

Ta'limiy bahs-munozaralar ikki tomonlama xususiyat kasb etadi. Birinchidan, bahs-munozaralarni tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yuzaga keltiradi va uni qo'llab-quvvatlaydi, ya'ni mazkur hamkorlikning samimiy va ochiq bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'qituvchi ta'limiy haqiqatni topishga yo'naltirilgan izlanish jarayonini boshqaradi. Agar o'qituvchi bahs yuritilayotgan masala yuzasidan to'g'ri xulosalarga kelishning uddasidan chiqsa, o'quv munozaralari samarali kechishiga erishadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda qayd etish mumkinligi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lish ta'limiy bahs-munozaralarni samarali tashkil etishga asos beradi:

- o'qituvchi-tashkilotchining qo'yilgan muammoni yuqori darajada tushuna olishi, shuningdek, o'quvchilarning mazkur o'quv muammosini yechish borasida yetarli o'quv-amaliy tajribaga ega bo'lishlari;
- o'qituvchi-muvofiqlashtiruvchi jiddiy metodik tayyorgarlikka egaligi bo'is qo'yilgan o'quv muammosining hal bo'lish darajasini bashorat qila olishi;

- o'qituvchining munozara jarayonida sustroq aralashib, o'quvchilarning esa faol ishtirok etishlari;
- o'qituvchining bahs-munozara jarayonini mahorat bilan boshqarib, o'quvchilarni faollashtirishga erishishi;
- ta'limiy bahs-munozaralarda erishiladigan maqsad — bu o'quvchilarning muayyan mavzuni to'liq o'zlashtirishlari. Usulning samaradorligi o'quv maqsadiga qanchalik erishilganligi bilan belgilanadi.

To'lig'icha o'quvchilarda mavjud hayotiy tajribalarga tayangan mazkur metodlar ularga muayyan o'quv materialini to'la o'zlashtirish imkonini beradi. Shaxsga yo'naltirilgan metodlarni qo'llashning o'ziga xos jihati shundaki, bahs-munozaralar jarayonida o'qituvchi muammoning yechimini topish yo'llarini ko'rsatmaydi, aksincha, o'quvchilarning o'zlari uni topish yo'llarini izlaydilar, o'zlari belgilagan tamoyil va yondashuvlarni asoslaydilar. Ana shu jihatiga ko'ra ta'limiy bahs-munozaralar o'quvchilarda kichik tadqiqotlarni olib borish, muammoni qo'yish, ilmiy farazni ilgari surish, yechimlarni izlash, qaror qabul qilish va umumiy xulosalarga kelish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega.

Ta'limiy bahs-munozaralar boshqa ko'rinishdagi bahs-munozaralardan, masalan ilmiy bahslardan farq qiladi. Ilmiy bahslar muayyan fan yo'nalishi bo'yicha ma'lum nazariya hamda qarashlarni ilgari surish va ularning yechimlarini topishga yo'naltirilgan bo'lsa, ta'limiy bahs-munozaralar muayyan ilmiy yechimga ega bo'lgan, biroq

o‘quvchilar uchun yangilik bo‘lgan muammolar yuzasidan bahslarni tashkil etishga yo‘naltiriladi.

Tajriba-sinov jarayonida qo‘llab, samaradorligi aniqlangan metodlardan yana biri ***muammoli vaziyatlarni tahlil qilish*** (ingliz tilida “Case-study”, nemis tilida “fallsude”) metodi. Metod o‘quvchilarni axborotlarni tahlil qilish, asosiy muammoni aniqlash, ularni hal etishning muqobil hamda eng samarali yo‘llarini tanlash va baholash, shu yo‘ldagi harakat dasturini ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish metodining o‘quvchilarda o‘zaro muloqotni yuzaga keltirishdagi afzalliklari quyidagilar bilan belgilanadi:

- fanlararo aloqani o‘rnatish mumkinligi;
- obrazli tafakkurni rivojlantirishga qaratilgani;
- muqobil variantlarni baholash imkoni borligi;
- tahlil natijalarini namoyon etish mumkinligi;
- qaror qabul qilish bilan bog‘liq jarayonda davomiylikning ta’minlanishi;
- o‘quvchilarga muloqotga kirishish va guruh yoki jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatini berishi.

Masalan, “Boburnoma” asari va unda aks etgan g‘oyalarga o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan material sifatida o‘quvchilar oldida turgan muammo, deb qaralsa, ushbu muammoli vaziyatlarni tahlil qilish sinf o‘quvchilari yoki kichik guruh a‘zolarining jamoaviy ishlari, tushgan takliflarni guruh bo‘lib muhokama qilish bilan muvofiqlashtiriladi. Bu

holat o'quvchilarda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Individual tahlillar, guruhda ularning muhokama qilinishi, muqobil variantlarning tanlanishi, harakat yo'nalishini va muammoni hal qilish rejasini belgilash o'quvchilarda tahlil qilish va rejalashtirish kabi sifatlar shakllanishiga yordam beradi. Ushbu metod, ayniqsa, asardagi voqea-hodisalarning mohiyatini anglash orqali o'rganishda nihoyatda qo'l keladi.

Amalda muammoli vaziyatlarni ishlab chiqishda quyidagi ikki yo'ldan birini tanlash mumkin:

- 1) o'quvchilarning hayotida sodir bo'lgan voqea-hodisalar misolida;
- 2) asarda aks etgan g'oyalarga asoslangan hodisalar, harakatlar asosida.

Ta'lim amaliyotida pedagogik muammoli vaziyatlarni yaratish va tahlil qilishda samaradorlikka erishishni kafolatlovchi quyidagi tamoyillar ishlab chiqilgan¹:

1. Muammoli vaziyat birgina mavzu yoki predmet doirasida hosil qilinmaydi. O'quv muammosi, odatda, boshqa predmetlardagi muammo va masalalar bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli o'quvchilar fanlararo aloqadorlikdan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

2. Muhokama jarayonida o'quvchilar muammoli vaziyatlarning tashqi jihatlariga emas, balki ichki sabablarga e'tiborni qaratishlari pedagogik jihatdan to'g'ri sanaladi.

3. O'quvchilar muhokama jarayonida ma'lum asar bo'yicha o'zlashtirgan ma'lumotlarni o'rinli qo'llay olishlari, shuningdek, ulardan

¹ Tolipova J. N. Noa'anaviy ta'limning didaktik asoslari: ped. fan. nom... dis. -T.: 1995. -182 b.

muammoli vaziyatlar yechimini topishda va tavsiyalar ishlab chiqishda foydalana bilishlari kerak.

4. Tashkil etilgan muammoli vaziyatning birgina yechimini topish bilan kifoyalanib qolmay, muammolarning qolgan yechimlarini ham izlash maqsadga muvofiqdir.

5. Asar tahlili va ular ilgari surayotgan g'oyalarning to'g'riligiga ishonch hosil qilishda o'quvchilarning shaxsiy tajribalariga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir.

6. Muammoli vaziyatlarni hal qilishga yondashish tizimli, izchil va o'rinli bo'lishi zarur.

Taqdimot (prezentatsiya) yoki himoya so'nggi yillarda ta'lim jarayoniga faol tatbiq etilayotgan metodlardan biri bo'lib, u ham o'quvchilar o'rtasida o'zaro muloqot, fikr almashishni yuzaga keltirishga yordam beradi. Maktab adabiy ta'limida badiiy asarni o'rganishda taqdimot (prezentatsiya) yoki himoyadan foydalanishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning muayyan muammolar yuzasidan mustaqil ishlashlariga imkon yaratish, ularning ijodiy, shuningdek, ilmiy izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Muayyan mavzu yoki muammo bo'yicha taqdimot (prezentatsiya) yoki himoya oldindan belgilangan vaqt davomida tayyorlanadi. Ularni tayyorlashda qanday yo'l tutish zarurligini o'quvchilarning o'zlari belgilaydi, shaxsiy tajribadan kelib chiqqan holda asarning asosiy g'oyalari muhokamaga olib chiqiladi. O'quvchilar tomonidan taqdimot yoki himoyani tayyorlashda o'qituvchi maslahatchi rolini bajarib, zarur o'rinlarda ularga nazariy hamda metodik jihatdan yordam ko'rsatadi.

Taqdimot yoki himoya ijodiy xarakterga ega bo‘lib, har bir o‘quvchi uni individual yoki kichik guruh tarkibida tayyorlashi mumkin.

O‘quvchilarning shaxsiy tajribalari, ijodiy qobiliyatlari hamda tanlangan (yoki o‘rganilishi talab etilgan) asar (muammo)ni qay darajada chuqur bilishlari taqdimot yoki himoyaning rasmiylashtirilishi va bezatilishida namoyon bo‘ladi.

Bu usuldan Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni yuzasidan timsollarga ta’rif keltirishda quyidagicha foydalanish mumkin:

Sinfda o‘quvchilar soni 30-35 nafarni tashkil etganda, 7 nafargacha ishtirokchilardan iborat guruhlar hosil etiladi.

1-guruh Farhod timsoliga; **2-guruh** Shirin timsoliga; **3-guruh** Layli timsoliga; **4-guruh** Majnun timsoliga; **5-guruh** qoralovchilar.

(Flipchart qog‘ozga markerlar yordamida fikrlarini yozish so‘raladi).

Topshiriqni bajarish uchun 15 daqiqa vaqt ajratiladi. Jarayon davomida 5 guruh ishtirokchilari o‘zaro taqsimlanib borib, ularning fikrlarini o‘rganib kelingan ma’lumotlarga qarshi fikrlar topishga harakat qiladi.

Guruh topshiriqlarni bajarib bo‘lgach, o‘z ishlarini 5 daqiqa davomida taqdim qiladilar.

1-guruh — Farhod timsoliga chizgilar doskaga barchaga ko‘rinarli tarzda osib qo‘yiladi.

Qoralovchilar guruh chiqishidan so‘ng o‘z fikrlarini aytadilar.

Aynan shu vaziyat bahs-munozara tug‘diradi.

Qoralovchilar o‘z fikrlarini, boshqa guruh o‘z fikrlarini himoya qiladi. O‘qituvchi bunda bahs-munozarani to‘g‘ri yo‘naltirishi, har ikkala fikr (qoralovchi va oqlovchilarning fikri)ning mohiyatini o‘quvchilarga tushuntirishi lozim. Ya’ni o‘qituvchi: “Shu vaziyatda qahramon o‘zini boshqacha tutishi mumkinmidi?”, “Shoir uni nima uchun aynan shu holatda tasvirlaydi?”, “Nima uchun u shunday qilishga majbur bo‘ldi?”, “Farhod tanlagan yo‘l o‘zini oqladimi?” Farhoddagi g‘amginliklarning sababini qanday izohlaysiz? Farhod o‘zidan ayrilgan onasining holatini qanday izohlaysiz? Farhod taqdiridan rozi bo‘ldimi¹? (strategiya, taktika nuqtai nazaridan) kabi savollar bilan jarayonni boshqaradi. Bunda o‘quvchilarning asar yozilgan davr bilan bugungi qarashlar o‘rtasidagi farqni zamonaviy oraliq nuqtai nazaridan solishtirishi kutiladi.

Ushbu usuldan “Xamsa” asarini o‘rganishda o‘quvchilarning ijodiy ishlari (insho, yozma tahlillari, taqrizlari, munosabatlari, tafsilotlari)ni baholash maqsadida tashkil etiluvchi joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat jarayonida ham foydalanildi. Bunda o‘quvchilar o‘zlari tomonidan asarning xususiyatlarini yorituvchi o‘quv axborotlariga oid bilimlarni joriy, oraliq, yakuniy kabi uch bosqichda namoyish etadilar. Taqdimot usulida o‘zlashtirilgan bilimlarning sxema, tasvir, jadval va boshqa ko‘rinishlarda ifodalanishi o‘quvchilarning nazariy bilimlari, malakalarinigina emas, balki ularning asarga nisbatan shaxsiy va ijodiy yondashuvlarini ham ifodalashga xizmat qiladi.

¹ Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshibekov J. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik majmua. –T.: “Yangiyo‘l Poligraf servis”, 2006.

Maktabda Oybek asarlarini o'rgatishda quyidagicha tashkil etish mumkin¹.

Oybek asarlari barkamol avlod ma'naviyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ham go'zal shaxsiyati, ham badiiy yuksak asarlari bilan yangi o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan ijodkor Oybek asarlariga dasturda **besht soat** vaqt ajratilgan. Mo'ljallangan vaqt mobaynida adibning "Na'matak", "Tog' sayri", "Yulduzlar chaman-chaman..." she'rlari hamda mashhur "Qutlug' qon" romani o'rgatilishi zarur.

Bizningcha, birinchi soatda adibning darslikda taqdim etilgan tarjimai holiga doir qo'shimcha ma'lumotlar berilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki Oybek shaxsiyatiga xos balandlik va ezgu fazilatlar haqida o'quvchilarda tasavvur uyg'otish adib asarlarini chuqurroq anglash kalitigina bo'lib qolmay, o'quvchilar shaxsiyatini tarbiyalash vositasi hamdir. Ishni, avvalo, yozuvchi tug'ilgan payt haqida mavjud ikki xil fikrdan birini tanlab, qat'iy to'xtamga kelishdan boshlagan ma'qul. Oybekning 1963- yilda chop etilgan "She'rlar" kitobida berilgan umrbyonida shoir tug'ilgan vaqt 1904-yilning 22-dekabri deb ko'rsatgan. O'n jildlik asarlari nashr qilina boshlangan 1968- yilda esa, adibning o'zi shunday deb yozadi: **"Men toshkentlikman. 1905- yil 10-yanvarda Eski shaharda o'rta hol hunarmand – bo'zchi oilasida tug'ildim"**. Bizningcha, ana shu keyingi ma'lumotga asoslangan ma'qul. Negaki, adib bizga noma'lum manbalarga tayanib o'zining tug'ilgan

¹ Yo'ldoshev Q, Sariboyeva M. Maktabda Oybek asarlarini o'rgatish yo'llari. Oybek ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.: 2016. 167-175 b.

vaqtiga aniqlik kiritgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham yozuvchining keyingi to'xtamiga asoslangan ma'qul.

Shuningdek, Oybek va G'afur G'ulom singari yozuvchilar sho'ro mafkurasining ta'zyiqi tufayli o'z umrbayonlarida madrasada o'qigan yillarini tilga olishmas, faqat eski maktab ko'rganlari haqida ma'lumot berishardi, xolos. Chunki sho'ro yozuvchilari aslida g'irt kambag'al, o'qishga ham imkoniyati bo'lmagan, faqat sotsializm tufayli ko'ksiga shamol tekkan yo'qsillardan chiqqan bo'lishi lozim edi. Aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, Oybek Toshkentning Oqmachit mahallasidagi madrasada tahsil ko'rib, arab va fors tillarini o'rgangan, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyorlar ijodi bilan tanishgan.

Ko'pchilik iste'dodli ijodkorlar qatag'on qilingan qonli 1937-yilda Oybek yozuvchilar uyushmasi a'zolidan o'chirilib, Til va adabiyot institutidagi ishidan haydaladi. O'sha davrda u og'ir ruhiy va iqtisodiy ahvolda yashaganiga qaramay, birinchi yirik nasriy asari "Qutlug' qon" romani ustida g'ayrat bilan ishladi. Olti oyda yozilib, 1941- yilda nashr etilgan bu roman Oybekning ijodiy hayotida ham, o'zbek adabiyotida ham katta voqea bo'ldi. Garchi, 1937-yilning ajal tegirmonidan omon qolgan bo'lsa-da, Oybekning boshi ustidagi bulutlar to'la tarqalmagan edi. 1950-yillar ular yana quyuqlashadi. Buning natijasida adib 1951-yilning 16-aprelida insultga yo'liqib, tili va qo'li ishlamay qoldi. Umrining qolgan qismida Oybek duduqlanib, tutilib gapiradigan, qo'li ishlamagani sababli asarlarini ayoli Zarifaxonim va kelini Hulkarga¹

¹ Hulkar – shoir Hamid Olimjon va shoira Zulfiyalarning qizi, Oybekning kelini, adabiyotshunos olim.

aytib yozdiradigan bo'ldi. Shuning uchun ham adibning bu davrdagi asarlarida badiiy puxtalik yetishmaydigan o'rinlar ko'proq.

Yana bir fakt ham Oybek shaxsiyatini ochishga xizmat qiladi. Adib 1943-1951-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Gumanitar bo'limini boshqargan. 1945-1949-yillarda esa O'zbekiston yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qilgan. Umrining ko'p qismini quvg'in va xavotirda, ijodi avji gulga kirgan paytlarni kasallikda o'tkazgan bo'lishiga qaramay, O'zbekiston xalq yozuvchisi Oybek XX asrdagi o'zbek yozuvchilari orasidagi eng sermahsul ijodkor hisoblanadi. Uning adabiy merosi 1975-1985-yillarda bosilib chiqqan yigirma jildlik "Mukammal asarlar to'plami"dan iboratdir.

O'ta samimiy va ta'sirchan Oybek go'zal lirik she'rlar muallifidir. Mumtoz adabiyotni puxta bilgan, Leningradda tahsil ko'rgan, rus va jahon adabiyotidan yaxshigina xabardor, Cho'lponning ijodiy ta'sirida bo'lgan Oybek o'zbek she'riyatidagi eng ilg'or shakliy-ifodaviy izlanishlarda faol qatnashdi. Uning she'rlari inson ko'ngli tovlanishlarining aksi o'laroq o'quvchilar e'tiborini qozondi. Ta'kidlash kerakki, sobiq sovet tuzumi adabiyotning kommunistik mafkuraga mos ijtimoiy va siyosiy yo'nalishda bo'lishini qat'iy talab etardi. Shuning uchun ham bu davrda yaratilgan asarlarning ko'pchiligida hayotga sinfiy qarash ustuvorlik qiladi. Qandaydir ijtimoiy tuzumni, qaysidir qarashlar tizimini inkor etib, nimanidir yoqlash, madh etish, hatto, lirik she'rlarda ham uchraydi. Oybekda ham juda ko'p she'rlar ijtimoiy yo'nalishga ega, lekin faqat qalb tebranishlari va ruhiyat to'lg'anishlarini aks ettirgan she'rlari ham talaygina.

1936-yilda bir guruh qalamkashlar bilan Toshkent yaqinidagi Chimyon qishlog‘iga borgan Oybek go‘zal tog‘ bag‘riga tikilgan o‘tovda A. Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romanini o‘zbek tiliga o‘girdi. Pushkin vafotining yuz yilligi nishonlanishi munosabati bilan qilingan bu tadbirga ko‘ra, ulug‘ rus shoirining barcha asosiy asarlari o‘zbekchaga tarjima qilinishi lozim edi. Berilgan bu imkoniyatdan foydalangan Oybek o‘sha paytda “Chimyon daftari” deb nomlangan she’rlar turkumini yaratdi va bu turkumdan o‘rin olgan bitiklar XX asr o‘zbek lirikasining go‘zal namunalariga aylandi.

Shoirning sof lirik yo‘sindagi she’rlaridan biri “**Na’matak**” ham ana shu munosabat bilan dunyoga kelgan. Asar XX asrning 30-yillari o‘zbek she’riyatida kam uchraydigan shaklda bitilgan. Chamasi, u rus simvolistlari, modernchilari va Cho‘lpon ijodining ta’siri tufayli paydo bo‘lgan. Odatda, o‘zbek barmog‘i to‘rtlik, oltilik va bq. bandlardan iborat bo‘lib, bandlar an’anaviy yo‘sinda qofiyalangan. Bu she’rda esa bandlar besh satrdan iborat bo‘lib, qofiyalashda qat’iy tartibga amal qilinmagan.

“Na’matak” she’rida to‘q qofiya deyarli yo‘qligiga, shoir o‘quvchi e’tiborini she’rning jarangdor ohangi bilan emas, balki lirik qahramonning misralarga singdirilgan ruhiyati jilvalarini ko‘rsatish yo‘li bilan tortishga erishgan. O‘qituvchi sirtidan qaraganda unchalik ham jozibali tuyulmaydigan bu asarning ichki garmoniyasini bolalarga anglata bilishi joiz. Shunday qilmasa, o‘quvchilar bitikning jozibasini tuymasliklari mumkin. She’rda bo‘rtib turgan ijtimoiy ma’no ko‘zga tashlanmaydi, lekin bu lirik asarda chin go‘zallikka tashna va uni har

qayerdan topa oladigan kishi sezimlarininig tovlanishlari borligi va uni payqash kishi ruhiyatini yuksaltirishi tayinligi o'spirinlarga yetkazilishi zarur. Shunday qilinganda, o'quvchilar quyidagi misralardan qoya tepasidagi o'sgan bir tup o'zbekchasiga itburun deyiladigan butani emas, balki "quyoshga bir savat oq gul tut"ib turgan go'zal na'matakni ko'rib hayajonga tushgan shoirni his etadilar:

Nafis chayqaladi bir tup na'matak
Yuksakda, shamolning belanchagida.
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o'shshaygan qoya labida
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...

Adabiyot o'qituvchisi she'ring yuqoridagi misralarida go'zallik qanchalar nafis, nozik, ojiz bo'lishiga qaramay, balandda turishi va yanada yuksakka intilishi aks etayotganiga o'spirinlar e'tiborini tortgani ma'qul. O'quvchilarni go'zallikning o'zini ham, u haqdagi tasvirni ham sezishga o'rgatish g'oyat muhimdir. Shunday qilinsa, "**Viqor-la o'shshaygan qoya labida**" misrasi o'zgacha ma'no kasb etadi. Qoya o'zini qudratli deb bilgani, atrofidagilarni ojiz sanagani bois viqor bilan o'shshayib turadi. Lekin u bir tup nafisgina, ojizgina na'matakni kiftida ko'tarib turishga mahkum. Chunki na'matak go'zallikdir va chin go'zallikning joyi hamisha yuksakda bo'ladi. O'rni kelganda, muallim na'matak deb shoirona nomlangan gul o'zimizning bog'lar va tog'larda emin-erkin o'sib yotadigan beorgina **itburun** degan buta ekanligini, Oybekning ushbu she'ri tufayli u o'zbeklar orasida ham xuddiforschadagiday **na'matak** atalib ketganini aytib qo'yishi mumkin.

Oybekning shoirona nigohi butaning tagida bo‘lgani bois erimay qolgan qorning holatini o‘zgacha ko‘z bilan ko‘rib, undan mutlaqo kutilmagan hayotiy ma’nolar chiqarganligiga o‘spirinlar e’tibori tortilishi kerak. Shunda ushbu bandeda aks ettirilgan manzara ham o‘quvchilar ko‘nglidan joy oladi:

Poyida yig‘laydi kumush qor yum-yum.

Nafis chayqaladi bir tup na’matak...

Shamol injularni separ chashmadak,

Boshida bir savat oq yulduz – chechak,

Nozik salomlari naqadar ma’sum!

She’rda ifodalanayotgan tuyg‘ular – samimiy va tiniq. Unda yolg‘on ko‘tarinkilik, chuchmal romantika, zo‘raki ijtimoiylik yo‘q. Butaning soyasida ekani bois saqlanib qolgan qorning havo harorati sabab sekin-sekin erib oqishini “**Poyida yig‘laydi kumush qor yum-yum**” tarzida ko‘rmoq va bu qadar chiroyli tasvirlamoq uchun kishida so‘z boyligidan ko‘ra tuyg‘u boyligi, ko‘ngil harorati ko‘proq bo‘lishi talab qilinadi. O‘qituvchi she’rning har bir misrasi, har bir so‘zi o‘spirinlar tomonidan his etilishiga erishishi lozim. Shunda hamisha shamol hamroh bo‘lgani sabab quyoshning na’matakka tushayotgan nurlari “**Shamol injularni separ chashmadak**” tarzida qabul etilganini tushunish va tuyish mumkin bo‘ladi.

She’rning shu bandidagi “**Boshida bir savat oq yulduz – chechak**” satrida na’matakning mayda va oppoq chechaklari ko‘kdagi yulduzlarga mengzalgani anglashiladi. Xayoli parvozga moyil, hayotga hayrat bilan qaraydigan kishiga shoirning bu tashbihlari sun’iy tuyulmaydi.

Oybekning sof ko'ngil lirikasi namunalaridan biri o'tgan asrning 30-yillarida yozilgan **“Tog‘ sayri”** she'ridir. Bu she'rda tog'ning olis bir kunjagidan izlay-izlay topilgan o'n ikki ko'zli buloq go'zalligidan hayratga tushgan shoir tuyg'ulari aks etgan. She'ring birinchi bandida shoir o'z hayajonini shunday ifoda etadi:

Axtarib topganimda o'n ikki buloq,
Qalbimda o'n ikki she'r birdan jo'sh urdi.
Hammasi shivirlaydi sizdek shan, inoq,
Ko'ksimga naq o'n ikki bahor yugurdi.

O'qituvchi o'quvchilarni ham shoir tushgan holatga yaqin sezimlar dunyosiga olib kirsagina she'r ularda qiziqish uyg'otishi mumkin. Aks holda, o'spirinlar shunchaki loqayd kuzatuvchi bo'lib qolishadi. Befarq munosabat esa har qanday she'ring tarovatini yo'qqa chiqaradi. Shoirning ko'ngil holati his etilsa, Oybekning: **“Qalbimda o'n ikki she'r birdan jo'sh urdi”** tarzidagi iqrori tushunarli bo'ladi. Shoirning yuragiga o'n ikki she'r zavqi tushuvining sababi birinchi bandning so'nggi qatorida asoslanadi: **“Ko'ksimga naq o'n ikki bahor yugurdi”**. Ma'lumki, bahor ko'pincha she'r va ijod bilan baqamti keladi.

Shoirning tuyg'ulari teran va simobday o'zgaruvchan bo'lgani uchun ham tevarak atrofdagi boshqa odamlar e'tiborini tortmagan narsalarni ko'radi va ulardan mutlaqo kutilmagan ma'nolar chiqaradi. O'qituvchi o'quvchilarning Oybek she'rlaridagi ayni shu jihatni hisobga olishlarini ta'minlay bilsalar adabiyot darslari samarali bo'ladi. Shunday qilinsa, o'quvchilarning xayoloti baland parvoz qilib, misralar

zamiridagi yashirin ma'nolarni kashf eta olishadi. Shundagina quyidagi satrlarning jozibasidan chinakamiga ta'sirlanish mumkin bo'ladi:

...Har tomchisida butun quyosh bekingan,
Gullar nafis boshlarin egmish ta'zimkor.
Barglarini varaqlab, shamol tinmasdan
Shivirlar chashmalarga... muhabbat izhor.

Shoir tabiatni jonlantiradi. Uni turg'un va o'zgarmaydigan jonsiz borliq emas, balki har bir ko'rinishida hayot jilvalanib turgan, o'zgaruvchan tirik hodisa sifatida ko'rsatadi. Shuning uchun ham she'rda buloqning tomchilari suv parchalari emas, balki har biri bag'riga quyoshni joylay olgan qudratdir. Gullarning shamolda chayqalishi ularning ta'zimkorligi, yaproqlarning o'yini ularning varaqlanishi hamda bu asnoda chiqqan shivirni shamolning buloqqa muhabbat izhor etishi tarzida qabul qilish uchun o'spirinlarda o'zganing ko'nglini anglash malakasi shakllangan bo'lishi lozim. She'rda favqulodda fikrlar, kutilmagan o'xshatishlar, porloq tashbihlar yo'q, ammo qaynoq qalb hayrati va samimiyati bor.

Oybekning go'zal lirik bitiklaridan yana biri **“Yulduzlar chaman-chaman...”** misrasi bilan boshlanadigan mo'jaz she'rdir. Yetti bo'g'inli misralardan tashkil topganidan ohangi o'ynoqi bu she'r shoirning ko'tarinki kayfiyati, romantik tuyg'ularini aks ettirishi jihatidan diqqatga loyiqdir. She'rda tog'ning sehrli va so'lim oqshomi ifoda etilgan. Tog'tunidagi har bir narsa shoirga jonli va sirli ko'rinadi. Jonli ko'rinibgina qolmaydi, balki shoirga bevosita yaqin, daxldor bo'lib tuyuladi ham. Shuning uchun osmondagi chaman-chaman yulduzlar shunchaki

charaqlab turmaydi, balki shoirga “ko‘z qisadi”, tog‘larning salobatli sukunati esa, “og‘ir uyquda” yotganday tuyuladi, tog‘ning soyi shunchaki oqmaydi, balki unda “sho‘xlik toshadi”. O‘qituvchi bu xil she‘r kundalik tirikchilik tashvishlaridan yuksalgan kishigagina ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini o‘quvchilariga singdirishi lozim. Aks holda, uning butun urinishi samarasiz bo‘ladi va she‘rning quyidagi dilbar misralari anglanmay qolaveradi:

Yulduzlar chaman-chaman,

Ko‘z qisadi inja, shan.

Tog‘lar og‘ir uyquda,

Sho‘xlik toshadi suvda,

Bulbul nayi sinmagan.

Boshqa bir shoir so‘nggi satrni, albatta, “Bulbul kuyi tinmagan” tarzida ifodalagan bo‘lardi. Oybek poetik nigohining o‘ziga xosligi she‘rxonga odatdagi holatni odatdagiday bo‘lmagan nazar bilan ko‘rish va doimgidan boshqacha ta’sirlanish imkonini beradi. O‘quvchilar ayni shu narsani, ya’ni bor narsani boriday yoki hamma qabul qilganiday emas, balki o‘zigagina xos nazar bilan ko‘rib, o‘zi ta’sirlangan holatda tasvirlash asl badiiyatning belgisi ekanini anglashlari zarur. Ular bilsinlarki, adabiyot jo‘n hayotiy reallik tugagan joydan boshlanadi.

Sakkiz qatorlik “**Sen g‘urubnin oltin qo‘llaridasen**” she‘ri qofiya tizimining mutlaqo o‘zgachaligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, unda g‘urub (govgum)ga cho‘mayotgan kechki paytning go‘zal manzarasi mahorat bilan chizilgan:

.

Sen g‘urubning oltin qo‘llaridasen,
Tabassuming, quyosh, so‘nar ohista.
Dala va qirlardan tiniqlik uchar,
Suvlar oynasiga shom qora surkar,
Xayolning men sokin cho‘llaridamen...

She’rda quyosh botishi oldidagi manzara butun ilohiy go‘zalligi bilan jonlantiriladi. Quyosh botishi arafasida ufq qon rangiga belanadi. Shoirga bu manzara “g‘urubning oltin qo‘llari” bo‘lib tuyuladi. Quyoshning o‘z nurlarini socholmay qolishi “**Tabassuming, quyosh, so‘nar ohista**”, degan qanoatga olib keladi. Faqat shoir nazarigina botayotgan quyoshni so‘ngan tabassumga qiyoslay oladi. Chindan-da, tabassumda ham nur bor. Va uning so‘nishi quyosh so‘nishiga o‘xshab ketadi. Negaki, bu nurlarning biri olamni, boshqasi odamning ko‘nglini yoritadi.

Botgan kun shoirga qattiq ta’sir qiladi. Ikkinchi bandeda uning tushkun ruhi bo‘y ko‘rsatadi. Birinchi bandning to‘rtinchi-beshinchi misralarida ruhiy tanazzul bir qadar asoslanganday bo‘ladi: “**Suvlar oynasiga shom qora surkar, Xayolning men sokin cho‘llaridamen**”. Kumushday yarqirab turgan suvga surkalgan qoralik xayol cho‘llarida kezgan oshiq ko‘ngliga ham soya soladi. Shuning uchun qahramonning zorlanishlari ishonarli:

Quyosh, oltining cho‘kkanday
Cho‘kar sevinchim,
Sinadi ichimda umidning tosi.
Qalbimni yirtadi uning sadosi.

Yupatmas na xayol, sevgi ro'yosi,

Yuramen, oqshomga singadi izim.

She'ning g'oyat mahzun ohangi, ma'yus ruhi o'quvchini o'ziga rom etadi. Shoir umid "tosining sinishi", "qalbining yirtilishi" uning: **"Yuramen, oqshomga singadi izim"**, deyishini mantiqan oqlaydi.

Ma'lumki, qofiya she'r musiqasini ta'minlash bilan birga, bandning tabiatini ham belgilab beradi. "Sen g'urubning..." she'rining birinchi bandi **abvva** tarzida, ikkinchi bandi esa, **abbba** tarzida qofiyalanishi aslo tasodifiy bo'lmay, shoirning poetik niyatini yuzaga chiqarish vositasidir.

Oybek o'zbek ijodkorlari orasida buyuk mehnat intizomi, haddan tashqari zahmatkashligi bilan ajralib turardi. Prof. N. Karimov aytmoqchi: **"Ijod uning yashash tarzi edi"**. Oybek og'ir kasal bo'lgan paytida ham ijodni to'xtatmagan. Buni **"Xastamen"** she'ridan olingan quyidagi misralar ham ko'rsatadi:

Hastamen... Fikrga, tuyg'uga to'lib,

Oy menga hamqadam – asta yuramen.

Sog'aysam, bir kuni yozamen to'yib,

Hislarga qalbimni qo'shib yozamen...

1959 -yilda bitilgan bu she'rda aks etgan adoqsiz armon hamda shoir yuragini tark etmagan cheksiz umid she'rxonni o'ziga ergashtirib ketadi.

Ma'lumki, Oybek ulkan nosir ham edi. Uning nasriy asarlari orasida **"Qutlug' qon"** romani alohida o'rin tutadi. O'qituvchi bu asar tahliliga kirishishdan oldin Oybek nasriy asarlari sarlavhasiga e'tibor qaratgani ma'qul deb o'ylaymiz. O'zbek adabiyotida asarga go'zal va serma'no ot

qo'yishda Oybekchalik yetuklikka erishgan ijodkor bo'lmagan. Adib romanlarining "Quyosh qoraymas", "Oltin vodiyan shabadalar", "Ulug' yo'l", qissalarining "Bolalik", "Nur qidirib" tarzida nomlanishining o'zidayoq bir olam ma'no bilan birgalikda go'zal badiiy ramz ham bor. Jumladan, "Qutlug' qon" romanida ham ozodlik va erk uchun to'kilgan qon behuda emas, balki qutlug' ekaniga ishora bordirki, bu yozuvchining topqirligidan dalolatdir.

Roman tahliliga kirishishdan oldin asarning imkon qadar ko'proq o'quvchilar tomonidan to'liq o'qib chiqilishiga erishish kerak. Chunki darslikda berilgan parcha asar haqida to'la tasavvur beradi deb bo'lmaydi. Roman to'liq o'qib chiqilsa, tahlil qiziqarli bo'ladi. O'spirinlarga ham estetik, ham ma'naviy jihatdan kuchli ta'sir ko'rsatadi. Albatta, kattagina bu asarni o'qib chiqishni uyushtirish oson emas, lekin o'qituvchi bolalarni qiziqtirish yo'lini topsa, yuqorida tilga olingan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarni qo'llasa, bunga erishish mumkin. Faqat biror topshiriqning ham sinfdagi barcha o'quvchilar tomonidan yuz foiz bajarilishi mumkin emasligini nazarda tutilishi lozim.

Tahlil jarayonida o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini romanda tasvirlangan voqealardan ko'ra, ular zamiridagi badiiy haqiqatlarni ilg'ab olishga qarata bilishi lozim. Buning uchun asardagi obrazlarning voqea uchun emas, balki voqealarning obraz mohiyatini anglab olish uchun vosita ekanligini tushunish va shunga yarasha didaktik tadbir ko'rish lozim bo'ladi. Chunonchi, o'quvchilar romandagi: ***"Quyosh tik kelgan. Havo lovillab yonadi. Yo'lchining yalang'och yelkasini quyosh***

qizdiradi. It akkillamaydi, qushlar sayramaydi. Ular o‘zlarini soyaga olib mudrashadi. Yo‘lchi yerning tosh bag‘rini yorib, to‘nka qo‘poradi” tarzidagi tasvir badiiyatini payqashga o‘rgatilsa, ularning estetik idroki o‘tkirlashib, badiiy didi yuksaladi.

O‘quvchilar: **“Yormat maysa ustiga uzala cho‘zilib, qattiq “uh” tortdi va choponining yoqasi bilan ko‘kragini yelpidi”** singari ifoda zamiridagi go‘zallikni, ularda milliy tutumlarimiz qanday aks etganligini ilg‘ay olsalar, asarga qiziqishlari ortadi va uni o‘zlari istab o‘qib chiqishadi. Yuqoridagi parchada kunning issig‘iga qaramay chopon kiyib olgan o‘zbek, uning ko‘kragini choponining yoqasi bilan yelpishi g‘oyat o‘ziga xos tasvirlangan. Chunki bu tasvirda hamisha ish bilan band Yormatning yelpinish va artinish uchun ro‘mol olib yurishga imkoni yo‘qligi ishonarli ifoda qilingan.

O‘quvchilar romandagi timsollarning tabiatini o‘qituvchi og‘zidan yoki muallif xarakteristikasidan emas, balki asar matnidan topishga o‘rganishlari kerak. Ular Mirzakarimboyning to‘nka kavlashi lozim bo‘lgan jiyani Yo‘lchiga aytgan quyidagi gaplarida uning tabiatiga xos jihatlar qanday namoyon bo‘layotganiga e‘tibor qaratishlari zarur: **“Ozgina yer emas bu. Taxminan, chorakam bir tanob. Yon-veri bilan qo‘shilib, bir tanobdan mo‘l yer qo‘lga kiradi. Keyin yaxshilab chopasan. Yarmiga sabzi, yarmiga kartoshka ekasan. Shu bilan qishligimiz bemalol chiqadi. Yana bu joyda qancha o‘tin yotibdi. To‘nkalarni kovlab, bir chekkadan yorilsa, talay o‘tin beradi. O‘tinsiz qozon qaynamaydi, chirog‘im”**. Boyning o‘ta puxta, hisobini biladigan, har bir ishdan foyda chiqarishga usta kishi ekani parchadagi gaplaridan

sezilib turadi. U chakalakzorni o‘zlashtirish orqali faqat yer ko‘paytirish bilan kifoyalanmaydi, balki qishlik sabzi-piyoz hamda o‘tin g‘amlash muammosini ham birvarakayiga hal etishni istaydi. Boy uzundan-uzoq, chuvalatib so‘zlamaydi. Qisqa-qisqa va aniq gapirish uning tabiatiga xos xususiyatdir.

O‘qituvchi asarni shu yo‘sinda o‘rgatsa, yaxshi pedagogik natijaga erishishadi. Nimagaki, badiiy asardagi ko‘zga tashlanib turmaydigan, ochiq aytilmagan ma’noni topa bilish o‘quvchilar intellektual imkoniyatlarini oshiradi va ma’naviy rivojlanishini tezlashtiradi.

Asarni o‘rganish davomida qahramonlarning ma’naviy-ruhiy qirralari namoyon bo‘lgan o‘rinlarga diqqat qaratmoq kerak. Gulnor taqdir taqozosi bilan kimsan shaharning eng badavlat, hurmatli boyiga turmushga chiqdi. Lekin bundan u zarracha bo‘lsin mamnuniyat tuymaydi. O‘zini qafasdagi qushday sezadi. Chunki moddiy va jismoniy ehtiyojlar bilangina qoniqib yashash insoniylikdan uzoqlashish demakdir. Shu ma’noda Gulorning kechinmalari uning yuksak tuyg‘ular kishisi ekanligini tasdiqlaydi. Unsin ham har jihatdan Gulnorga yaqin qiz. Uning hayo va iffati akasining boy dargohidan ketasanmi degan so‘rog‘iga ijobiy javob berib, bunga Salimboyvachchadan qo‘rqishi sabab ekanini aytgan lavha tasvirida namoyon bo‘ladi: “...**Salim akadan. Yolg‘iz ko‘rsa, tegishaveradi. Yomon gaplar gapiradi...— Unsin boshini yerdan uzmadi va yuzi bir lahzada olovlandi**”.

Yo‘lchi ham ana shunday odamlardan. Salimning qiliqlarini eshitgan zahoti singlisini boyni uyidan olib ketgani, boyvachcha bilan

erkakchasiga orani ochiq qilgani, Mirzakarimboy bilan to‘qnashuvi tasvirlangan lavhalarda uning oriyatli ekani, mardligi, yuksak insoniy g‘ururga egaligi aks etganligi tahlil kechimida ayon bo‘lishi lozim. Shuningdek, moddiy yoki mansab jihatdan boshqalardan ustun shaxslarning tubanliklari ko‘rsatilgan o‘rinlarni bolalar sharhlashlari kerak. Salimboyvachcha o‘z ammasining qizi yosh Unsunga tajovuz qilishdan uyalmaydi. Yo‘lchidan ta‘zirini yegan vaziyatda esa qo‘rqoqligi, chiranchiq va shallaqliligi ko‘rinadi.

Mirzakarimboy ham Yo‘lchiga surbetlarcha aytgan: **“Nodon. Xo‘jayin degan xizmatkorni qiziqtirish uchun va‘da qilaveradi-da, har qanday va‘daga ishonaveradimi odam!”** gapi bilan o‘zining munofiqligini ko‘z-ko‘zlaydi. Boy boshqalar tugul jiyanining haqiga xiyonat qilishdan uyalmaydi. U birovni tushunish baxtidan benasib, shuning uchun ham hech kimga ichi achimaydi, yordam bergisi kelmaydi. U – katta mulkning egasi. Ammo o‘zi ana shu mulkning quli ham. Negaki, butun fikru zikri boyligidan foydalanish emas, balki uni ko‘paytirish, birini ikki qilishdangina iborat. Boy o‘zi topgan, yaratgan narsalarga bog‘lanib qolganidan ularning izmidan chiqolmaydi, qo‘lidan kelgani holda Unsinday bir qizning jo‘ngina iltijosini oqibatsiz qoldiradi. Eng yomoni u bu ahvolidan qiynalmaydi, iztirob chekmaydi. Mirzakarimboy obrazi faqat boy emas, balki odam va qarindosh sifatida tahlil etishga urinilsa, ko‘ngildagi natijaga erishilishi mumkin.

Adabiyot muallimi Yo‘lchi tabiatiga xos insoniy g‘urur va halollik tuyg‘usi tasviriga ham o‘spirinlar e‘tiborini qaratishi kerak. Oldinlari ayrim olimlar tomonidan aytilganidek, Yo‘lchi qishloqdan shaharga

kelib ongi o'sgan va boylarga qarshi kurashga otlangan o'zbek mehnatkashlarining umumlashma (tipik) obrazi emas. Negaki, qishloqdan shaharga kelish hamma zamonlarda, jumladan, "Qutlug' qon" romanida tasvirlangan davrda ham bo'lgan. Lekin ularning birortasi ham Yo'lchi bo'lolmadilar. Bo'lishi ham mumkin emasdi. Chunki Yo'lchi kambag'al bo'lgani yoki yerini sotgani yoxud qishloqdan shaharga borib qolgani uchun emas, balki shunday fe'lga, aqlga, taqdirga ega bo'lgani uchun qutlug' qonini to'kish darajasiga yuksaldi. O'quvchilar uning tasodifan to'planib qolgan odamlar oldida aytgan gaplari, so'ng mardikor olishga qarshi boshlangan qo'zg'alishda qatnashishi tasvirlariga tayanib, undagi insoniy sifatlarning namoyon bo'lish bosqichlarini ko'rsatib bersalar maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar na boy tog'asidan, na chiranchiq Salimboyvochchadan va na o'ris politsiya boshlig'idan qo'rqadigan yovqur yigitning tabiatiga xos jihatlarni asardan topib o'qib, bu tasvirlarni ham hayotiylik, ham ta'sirchanlik, ham badiiy joziba nuqtai nazaridan baholashni o'rgansalar, bolalarning ma'naviy o'sishi tezlashadi.

Asar tahlili tugaganidan so'ng, roman janri haqida nazariy ma'lumot berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda tafsilotlar tasviri, alohida bir odam tabiatidagi turli qirralarning batafsil tadqiqi, bayonning ko'lamdorligi hamda ifoda yo'sinida imkoniyatning kengligi singari belgilar roman janriga xos ekanligi Qodiriy, Cho'lpon, Oybek asarlari misolida tushuntirilsa, bolalarning esida yaxshi qoladi. Lekin hajmning kattaligini roman janri belgilaridan biri sifatida ko'rsatish noto'g'ri ekanini o'quvchilarga tushuntirish zarur. Negaki, adabiyot tajribasida

nafaqat qissadan, hatto hikoyadan ham kichik o'n betga yetmaydigan romanlar ham borligi ma'lum. Chunonchi, Omon Muxtorning qator romanlari, Ulug'bek Hamdamning "Na'matak" romani hajmining kichikligi bilan ajralib turadi. Ayni vaqtda, yozuvchi Tohir Malikning besh kitobdan iborat "Shaytanat" pentalogiyasi qissa deb atalishini bolalar bilib qo'yishlari kerak.

Qayd etish kerakki, ta'lim jarayonida adabiyot o'qituvchilari tomonidan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ko'plab turlari qo'llaniladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining har biri muayyan o'ziga xoslikka ega bo'lib, o'quvchilar va o'qituvchi, shuningdek, o'quvchilar va o'quvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni, o'rganilayotgan mavzuga ijodiy yondashuvni yuzaga keltiradi. Adabiyot fanini o'qitishda o'qituvchilar mavjud interfaol metodlardan foydalanib qolmay, shu bilan birga, o'zlari ham shaxsiy g'oyalari asosida yangi metodlarni yaratishlari mumkin. Zero, adabiyot o'qituvchilarida ko'zga tashlanuvchi ijodkorlik xislati bunga imkon beradi. Demak, zamonaviy adabiy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlik, hamjihatlikni yuzaga keltirish orqali ularga bilimlarni samarali o'zlashtirish imkonini beradi. Qayd etish kerakki, ta'lim jarayonida adabiyot o'qituvchilari tomonidan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ko'plab turlari qo'llaniladi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini interfaol asoslarda tashkil etishda usulning mohiyati, uni amalga oshirish yo'llari va buning uchun zarur shartlar to'g'risida o'quvchilarni xabardor qilish, interaktiv metodning

turini tanlashda sinfdagi o'quvchilarning xususiyatlarini hisobga olish, ta'lim jarayonining har bir bosqichida amalga oshiriladigan vazifalarni tushuntirishi darsning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Interfaol metodlarni qo'llashda dastlab maqsad va vazifalar aniqlashtiriladi. Adabiyot o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri — bu o'quvchilarning mavjud nazariy bilimlari hamda amaliy ko'nikmalarini hisobga olgan holda o'quvchilarga yo'naltiruvchi maslahatlar berishdan iborat. Maslahatchi sifatida adabiyot o'qituvchisi ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishda quyidagi tamoyillarga amal qilishi kerak:

- darsni tashkil etish chog'ida ma'lum muammoga duch kelgan yoki kutilmaganda savol berish istagida bo'lgan ishtirokchiga e'tibor qaratish va buning uchun qulay vaziyatni tanlay olish;
- zarur o'rinlarda o'quvchilarning faoliyati, xatti-harakatlaridan qoniqish hosil qilayotganligini bildirishi yoki ularni rag'batlantirishi;
- o'quvchilarni o'zlaridagi nazariy bilim, amaliy ko'nikmalardan samarali foydalanishga yo'naltirish;
- dars jarayonida ma'lum qiyinchiliklarga duch kelgan o'quvchilardagi o'ziga ishonchsizlik, o'zini yo'qotib qo'yish kabi salbiy holatlarni bartaraf qilish;
- ta'limning muqobil shakllarini qo'llashga hamisha tayyor bo'lib turish.

Adabiyot o'qituvchisi darsdan oldin o'tilajak mavzu yuzasidan kerak bo'ladigan barcha didaktik va texnik vositalarni tayyorlab qo'yishi darsning samarali tashkil etilishini ta'minlaydi.

O'qituvchining tashkilotchi sifatidagi vazifasi: darsgacha, dars vaqtida va darsdan keyingi barcha bosqichlarda namoyon bo'ladi. Adabiyot o'qituvchisi tashkilotchi sifatida mashg'ulot maqsadini belgilash, qaror qabul qilish, rejalashtirish, dars jarayonini tashkil qilish, uning borishi va natijasini nazorat qilish, zarur bo'lganda, dars mazmunini o'zgartirishda ham bevosita ishtirok etadi.

Darsning borishi adabiyot o'qituvchisidan barcha kichik guruhlar faoliyatini yo'naltirish, guruhlararo bahs-munozaralarni boshqarish, ularga zarur vaziyatlarda yordam ko'rsatish hamda ruhiy madad berish, ish mazmunini tahlil etilishini nazorat qilib borishni talab qiladi. Bundan tashqari, adabiyot o'qituvchisi mashg'ulot o'tadigan xona va boshqa zarur o'quv anjomlarini ta'lim jarayoniga tayyorlash, shu bilan birga yetarli miqdorda ish o'rinlari bo'lishini ta'minlashi lozim.

Barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirgach, adabiyot o'qituvchisi darsning samarali tashkil etilganligini aniqlash hamda natijalarni tahlil etishi, shuningdek, qisqa savol-javoblar orqali o'quvchilarning taassurotlarini o'rganishi maqsadga muvofiq bo'lib, bu harakat keyingi pedagogik faoliyat yo'nalishini belgilashga ham yordam beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etiluvchi o'quv mashg'ulotlarini boshqarish boshqa mashg'ulotlardan tubdan farq qiladi, shu sababli adabiyot o'qituvchisi ularning tashkiliy-metodik jihatidan to'g'ri uyushtirilishiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Adabiyot o'qituvchisining boshqaruvchi sifatida kichik tadqiqot va innovatsion faoliyatni tashkil etish jarayonida qo'llanilishi rejalashtirilayotgan interfaol metodlar mohiyatidan to'la xabardorligi

kifoya qilmay, shu bilan birga, darsni tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtirish, o'quvchilar faoliyatini nazorat ostiga olish, kutilmagan tasodif yuz bergan yoki xatoga yo'l qo'yilgan holatlarni tezda seza olishi, muammoli vaziyatlarni to'g'ri tashkil etishi, shuningdek, dars davomida ma'lum tuzatishlarni kiritib borish layoqatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Uning dars bosqichlarining xususiy maqsadlarini yaxshi bilishi esa darsning izchil, uzluksiz va bir maromda tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratadi.

Umuman olganda, dars jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanish hamda yaxlit, umumiy ta'lim jarayonini boshqarish adabiyot o'qituvchisidan tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishni, alohida faollik ko'rsatishni, topqir, qat'iyatli bo'lishni talab etadi. Shu bilan birga, u yetarli harakat tezligiga ega bo'lishi, ma'lum pozitsiyada tura olishi va o'quvchilarga birdek ta'sir ko'rsata olishi lozim.

Hozirgi sharoitda adabiyot o'qituvchisidan aloqa o'rnatuvchi (kommunikatorlik) sifatiga ega bo'lish ham talab etiladi. Bunda sinfdagi barcha o'quvchilar bilan birdek ta'limiy aloqa o'rnatish, o'quvchilarni tinglay olish, muammoni yechish uchun mantiqiy izchillikka ega savollarni berish hamda o'quvchilarning savollariga qisqa, aniq, lo'nda va yo'naltiruvchi javob bera bilish, munozarani tashkillashtirish, o'quv xonasi (yoki auditoriya)da ijodiy muhitni hosil qilish kabilar alohida o'rin tutadi.

Aloqa o'rnatuvchi sifatida adabiyot o'qituvchisi, har bir kichik guruh ichida va guruhlararo muloqotni yuzaga keltiribgina qolmay, muloqot jarayonida barcha o'quvchilarning faol ishtirok etishini

ta'minlashi, ularning ta'limiy faolliklarini boshqarishi, o'quvchilar tomonidan ilgari surilgan fikrlarni sharhlashi, muhim fikrlarni umumlashtirishi, mashg'ulotni yakunlashi ham zarur.

Interfaol ta'limni tashkil etishda adabiyot o'qituvchisining zimmasidagi vazifalardan yana biri - bu ta'lim jarayonini nazorat qilish, ta'limning metodik va texnologik qoidalarga muvofiqligini ta'minlash, o'quvchilar diqqatini darsga bevosita jalb qilish, o'qituvchi va o'quvchilar, shuningdek, o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mazmuni hamda mohiyatini nazardan qochirmaslikdan iborat.

O'quv mashg'ulotlarida o'quvchilar o'zlarini jismonan va ruhan erkin his etadigan muhit yaratishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu holat ularning aqliy hamda psixologik jihatdan to'liq rivojlanishlari uchun yordam beradi. Ta'lim jarayonini nazorat qilishda adabiyot o'qituvchisi asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratishi lozim:

1) o'quv xonalari (auditoriyalar)ning yetarli darajada yorug', qulay va tartibli bo'lishi (xona havosining tozaligi, yorug'likning yetarli bo'lishi, mebellarning qulayligi, zarur texnik vositalarning mavjudligi va boshqalar);

2) o'zining yoqimli qiyofaga egaligi hamda birinchi ko'rinishdayoq o'quvchilarda ishonch uyg'ota olishi;

3) o'quvchilar guruhlar bilan tashkiliy masalalar (o'quv faoliyati mazmuni, tartibi, bosqichlar, ularda hal etiluvchi masalalar, turli interfaol metodlarni tashkil etish shartlari va boshqalar) yuzasidan kelisha bilishi;

4) ta'lim jarayonining ixtiyoriylik tamoyiliga muvofiq tashkil etilishi (o'quvchilarni guruhlarga biriktirishda ularning xohishlarini inobatga olish, har qadaj majburlovdan tashqarida bo'lish)ga erishish;

5) o'quvchilarning o'z aqliy imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishlariga erishishi (nazariy bilim va amaliy malakalarini to'la namoyish etishlariga imkon yaratish);

6) o'quvchilardagi hayajon yoki xavotirga barham beradigan, ularning ta'lim jarayoniga tezroq moslashishlariga yordam qiladigan mashq yoki treninglar tashkil etishi;

7) ta'lim jarayonini "barcha barchaga" shiori asosida o'quvchilarning hissiyotlari, o'y-kechinmalari va shaxsiy fikrlarini tanqid qilmasdan tashkil etishi.

Adabiyot o'qituvchisi nazoratchi sifatida har bir o'quvchining o'quv faolligini oshirishga yordam berishi lozim. Bu o'rinda uning yordami quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- o'quvchilarga ochiq savollar berish;
- o'quvchilar tomonidan tushgan turli signallarga javob qaytarish;
- o'quvchilar o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatli bahs va noaniq muammolarni oson va adolatli bartaraf qilish;
- muayyan masalalar bo'yicha o'quvchilarning umumiy xulosaga kelishlariga ko'maklashish;
- o'quvchilarning ehtiyojlariga ko'ra favqulodda zarur ma'lumot, axborotlarni berish;
- ma'lum masalalar yuzasidan jamoa bo'lib qaror qabul qilishga imkoniyat yaratish.

Zamonaviy ta'limda adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarning manfaatlaridan kelib chiqib ish ko'rishi, ularning haq-huquqlarini hurmat qilishi, erkin faoliyat yuritishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Endilikda adabiyot o'qituvchisi: "Men bugungi darsni o'tish uchun..." degan yondashuvdan voz kechib, "Darsda Sizlarga imkon berish uchun..." qarashi asosida o'quvchilar bilan samimiy munosabat o'rnatishi kerak.

Maktablarda adabiyot o'qitishda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotda quyidagi talablarga asoslanishi zarur:

- "muloqotdagi sheriklar" (o'qituvchi va o'quvchi)ning teng huquqliligi;
- ayblov hamda tanqidning mavjud emasligi;
- "himoyalaniş pozitsiyasi"ni hosil qilishga ehtiyojning yo'qligi;
- o'zaro yaqinlik va ishonch;
- samimiylik.

Adabiyot o'qituvchisi har bir o'quvchiga alohida e'tibor qaratishi kerak. Bu — uning his-tuyg'ulari, pedagogik odobi va o'zini tuta bilishining hamda ta'lim jarayonida adabiyot o'qituvchisi va o'quvchilar orasidagi munosabatning yo'nalishini belgilaydi. O'qituvchi o'quvchilarni hamisha ruhiy qo'llashi, ularning yetarli darajada bo'lmagan hayotiy tajribalarini hurmat qilishi, ular qabul qilgan qarorlarga do'stona munosabat bildirga olishi lozim.

Har qanday o'qitish jarayoni aniq maqsadni ko'zlaydi. Maqsad aniq va real bo'lsa, natijalar ham samarali bo'lishi tabiiy.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda quyidagi umumiy fikrga kelish mumkin: ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarning o'quv faolliklarini oshirish, darslarning qiziqarli va samarali tashkil etilishini ta'minlash imkonini ham beradi. Har bir interfaol metod o'ziga xos didaktik imkoniyatlarga ega bo'lish bilan birga, ulardan foydalanishda ma'lum shartlarga amal qilinishini taqozo etadi.

ADABIYOT DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Hozirgi kunda o'quvchilar qaysi fan asoslarini o'zlashtirmasin, barcha o'quv materiallari dunyoni uzviylikda o'rganishga qaratilmoqda. Bu fanlararo uyg'unlik, integrativ yondashuv asosida amalga oshadi. Ushbu yondashuv adabiyot o'qitish doirasida til, adabiyotshunoslik, tarix, geografiya, musiqa, tasviriy san'at, psixologiya, o'lkashunoslik fanlari bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi.

Adabiyot darslarida adib va shoirlar asarlarni o'qitishda o'quvchilarning faolligini ta'minlashga qaratilgan interfaol usullardan bir qanchasi maktab amaliyotida sinab ko'rildi va ijobiy natijaga erishildi. Chunonchi, 5-11 sinflarda o'rganilishi mo'ljallangan ayrim asarlarni o'tishda o'zimiz qo'llagan shaxsga yhnaltirilgan ta'lim usullari tavsifini keltiramiz.

5-SINF

Darsning mavzusi: Bobur ruboiylarini o'rganish.

Darsning maqsadi: o'quvchilarni Bobur hayoti va ijodi bilan tanishtirish, Bobur ruboiylarini tahlil qilish, o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish, fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish.

Dars metodlari: an'anaviy va interfaol metodlar.

Darsning borishi: darsning boshlanishida o'qituvchi avvalgi darsda o'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi, ularning javoblarini umumlashtiradi. Bugungi darsda Bobur ruboiylari o'sha yillardagi hayoti bilan bog'liqligi, ruboiylarining bosh g'oyasi bilan tanishilishiga urg'u beradi.

Boburning hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarni yoritishda darslikda berilgan ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, quyidagi

3. Mashrabov, S. Shokarimovlarning „Asrlarni bo'ylagan Bobur“;

S. Jalilov: „Boburning Farg'ona davlati“, „Bobur va Andijon“; Qamchibek Kenja: „Hind sorig'a“; X. Sultonov: „Boburning tushlari“, „Boburiynoma“; R. Shamsuddinov: „Boburiylar izidan“, „Boburiylar sulolasi“; T.Nizom: „Uch so'z“ kabi asarlaridan, risolalaridan foydalanish mumkin. Shoirning hayoti xususida ma'lumot berilganda o'quvchilar diqqati mavzuning eng muhim o'rinlariga qaratiladi. Chunonchi:

1) shoirning ota-onasi to'g'risida ma'lumot berish jarayonida e'tiborni otasi Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi bo'lib, o'z zamonasining o'qimishli kishilaridan ekanligi, onasining esa o'qimishli va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol

ko‘mak bergani, harbiy yurishlarida unga hamroxlik qilganligi borasidagi dalillarni keltirish.

2) shoirning she‘riyatga bo‘lgan ishtiyoqi, Alisher Navoiyning ijodi bilan doimiy ravishda tanishib borishi, Boburning ulkan san‘atkorligi xususidagi ma‘lumotlar bilan o‘quvchilarni yaqindan tanishtirish.

3) O‘quvchilarni shoir ijodiy faoliyatining boshlanishi, Uning ruboiy, tuyuq va masnaviylari yengil va o‘ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etilishi respublikamiz olimlari tomonidan adabiy maqolalar sifatida mavjudligidan xabardor etish.

Dars jarayonining umumiy mohiyati: Dars interfaol metodlardan “Bilaman”. “Bilishni xohlayman”. “Bilib oldim” strategiyasi asosida olib boriladi.

Sinf o‘quvchilari beshta guruhga bo‘linadi. Har bir guruh o‘z guruhini nomlaydi. Sinf taxtasi uch qismga ajratilib chiziladi. Birinchisiga “Bilaman”, ikkinchisiga “Bilishni xohlayman”, uchinchi qismga esa “Bilib oldim” deb yoziladi.

So‘ngra o‘qituvchi da‘vat bosqichiga o‘tadi. Ya’ni, guruhlardan bugungi o‘rganiladigan mavzu bilan bog‘liq qanday ma‘lumotlarni bilishlarini so‘raydi va bildirilgan fikrlarni “Bilaman” ustuniga yozib boradi. Shundan so‘ng guruhlar navbati bilan mavzuga oid bilganlarini ayta boshlaydilar. Buni guruhlar fikrlarini tugatguncha davom ettirish mumkin va guruhdagi barcha o‘quvchilar ishtirok etishiga erishish lozim. Bunda o‘quvchilar qanday fikrni o‘ylasalar uni (garchi noto‘g‘ri bo‘lsa ham) aytishlari mumkin. Chunki biz o‘quvchilarni “noto‘g‘ri

aytding” deb cheklab qo‘ysak, ularning faol ishtirok etishlariga, o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga to‘sqinlik qilgan bo‘lamiz.

Guruhlar faoliyatini tugatgach, ikkinchi “Bilishni xohlayman” qismiga o‘tiladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan bugungi mavzu bilan bog‘liq yana nimalarni bilishni xohlayotganlarini so‘raydi va o‘quvchilarni yana o‘ylashga da‘vat etadi. Guruhlardan navbati bilan fikr so‘raladi va “Bilishni xohlayman” ustuniga yozib boriladi. Fikr bildirish tugatgach, o‘qituvchi Bobur ijodiga doir kichik matn tarqatadi. Ushbu matn mavzuga oid o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan asosiy ma‘lumotlardan tuzilgan bo‘ladi. O‘quvchilar ushbu matn bilan tanishib chiqqach, fikrlash bosqichiga o‘tadilar, ya‘ni yangi mavzu bilan bog‘liq yana nimalarni bilib oldim deya fikrlay boshlaydilar. O‘quvchi guruh a‘zolari bilan o‘rtoqlashgach, mavzuga oid bilib olgan ma‘lumotlarni aytib berishadi. O‘qituvchi esa o‘quvchining bildirgan fikrlarini “Bilib oldim” ustunga yozib boradi.

Ushbu metod o‘quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashga, fikrini aniq va ravshan ifodalashga, o‘zidagi mavjud bilimlarni yuzaga chiqara olishga, mantiqiy tafakkurini o‘stirishga yordam beradi.

Shundan so‘ng olingan bilimlarni yanada mustahkamlash maqsadida darslik bilan ishlashga kirishiladi. Guruhlarga o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan kichik mavzular beriladi. Xususan;

1-guruhga. “Bobur ijodining shakllanishi”.

2-guruhga. “Bobur- shoh va shoir”

3-guruhga. “Bobur -lirik shoir”.

Har bir guruhga ushbu metodni birinchi marta qo'llaganda o'ziga tegishli o'quv material qismiga oid umumlashtirilgan matnlar tarqatiladi.

Guruh a'zolari o'zlariga tegishli o'quv materialini o'qib chiqqach, tanlangan lider(sardor)lar tomonidan sinf doskasiga chiqib tushuntirib beradilar.

Bunda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'quv materialini yana bir bor mustahkamlashga erishiladi. Agar vaqt bo'lsa, material qismlarini almashtirib yana davom ettirish mumkin.

Shundan so'ng Bobur ruboiylarini tahlil etishga kirishiladi. Avvalo, ayrim mashhur ruboiylar o'qituvchi tomonidan yoddan o'qiladi. Bunday yo'l orqali o'quvchilar o'qituvchi haqida yaxshi taassurotga ega bo'lishadi hamda o'quvchilarni she'riyatga mehr paydo qilish uchun bu qulay fursat bo'ladi. O'quvchida ham shunday darajaga erishish hissi uyg'onadi.

So'ng she'r o'quvchilarga ifodali o'qitiladi. O'quvchi ham iloji boricha ifodali o'qishga harakat qilishi kerak va bunda o'qituvchining ko'magi albatta zarur bo'ladi. Toki, she'r har bir o'quvchinig qalbiga yetib borishi, shoirning dardiga sherik bo'lishi, shoirning hissiyotlari uning ko'z oldida gavdalanishi kerak.

Bobur 18—19 yoshlarida ruboiy va g'azallar yoza boshlagan. Uning "Topmadim" radifli g'azali va "Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi" misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o'sha yillardagi hayoti bilan bog'liq.

Boburning ulkan san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Bobur ijodida, xususan, she'riyatida kindik qoni to'kilgan ona yurtini dil-dildan qo'msash, uning tuprog'iga talpinish, g'ariblik azoblaridan o'tli hasrat, yoru diyor soginchi va visol ilinji, taqdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan nola badiiy tahlil etiladi.

Dars so'nggida uyda ruboiylardan namunalar yodlab kelish va shoir haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirib kelish topshiriladi.

8- SINIF

MAVZU: TO'RA SULAYMON LIRIKASI


Darsning maqsadi: To'ra Sulaymon haqida olgan bilimlarini umumlashtirish, ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash.

Dars metodlari: an'anaviy, interfaol, modellashtirish.

Dars jihozi: rasmlar, testlar, jadvallar, kitoblar ko'rgazmasi.

Darsning borishi:

Dars dastlab "Ven diagrammasi" strategiyasi asosida olib boriladi. Buning uchun sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linadi va guruhlar nomlanadi. Sinf taxtasiga quyidagi tartibda uchta doira chiziladi.



Guruhlarga quyidagi mavzularda kichik matn yaratish vazifalari topshiriladi:

1-guruh –T.Sulaymon Mangulikka dahldor inson.

2-guruh – To‘ra Sulaymon she’rlaridagi o‘zbekona ruh.

3-guruh - To‘ra Sulaymon –kengliklar kuychisi

Yana bir o‘rinda 1-guruhga T.Sulaymon, A.Avloniy va H.H.Niyoziy ijodining o‘xshash jihatlarini va farqlarini taqqoslash vazifasi topshirilishi mumkin. O‘quvchilar T.Sulaymon ijodiga xos bo‘lgan asarlarni diagrammaning 1-qismiga, Abdulla Avloniy ijodiga xos bo‘lgan asarlarni diagrammaning 2-qismiga va H.H.Niyoziy ijodiga xos bo‘lgan asarlarni diagrammaning 3-qismiga yozadilar va 1,2 diagrammalarning kesishmasiga va 2,3 diagrammalarning kesishmasiga har uchala ijodkorning ijodida uchraydigan bir xil mavzuli asarlar yoziladi.

2-guruhga To‘ra Sulaymon, Abdulla Avloniy va H.H.Niyoziyning yozgan she’riy asarlarini aniqlash va ularni diagrammada aks ettirish vazifasi topshiriladi. O‘quvchilar diagrammaning 1-qismiga T.Sulaymon ijodiga xos bo‘lgan she’rlarni, 2-qismiga Abdulla Avloniy ijodiga xos bo‘lgan she’rlarni, 3-qismiga H.H.Niyoziy ijodiga xos bo‘lgan she’rlarni yozadilar 1-2- va 3-diagrammalar kesishmasiga har uchala ijodkorning she’rlaridagi o‘xshashlik tomonlari yoziladi.

3-guruhga T.Sulaymon, Abdulla Qodiriy va H.H.Niyoziyning xalq og‘zaki ijodiga oid she’rlarining o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash vazifasi yuklanadi.

Guruhlar vazifalarni bajarib bo'lgach, lider(sardor)lar tanlanadi va sinf taxtasiga chizilgan diagrammani umumlashtirib to'ldiriladi.

Shundan keyin darsning navbatdagi bosqichiga o'tiladi. O'quvchilar darslikdan o'qib, ular orasidagi mantiqiy munosabatlarni sxema tarzida umumlashtiradilar, ya'ni, modellashtiradilar. Bu esa o'quvchilarning fikrini jamlashga, o'quv materialining har bir elementini nazardan chetda qoldirmaslikka va mantiqiy tafakkurini o'stirishga yordam beradi.

O'quv materiallari orasidagi mantiqiy munosabatlarni aniqlash ularni chuqur tushunib, anglab yetishlariga va uzoq muddat esda saqlab qolishlariga imkon yaratadi.

Germaniya maktablarida turli xil interaktiv metodlardan, masalan: *jamoali o'qish, hamkorlikda o'qitish, guruhli ishlash, intervyu, mustaqil o'qish* kabi ko'plab metodlardan foydalanishadi.

To'ra Sulaymon asarlarini o'rgatishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan shu kabi mashg'ulotlar o'quvchilarning yakka va o'zaro birgalikdagi faoliyati asosida amalga oshirilishi mumkin. Asosiy e'tibor mustaqil ravishda fikr yurita oladigan shaxsni tarbiyalashga qaratilgani ma'qul.

O'quvchilar o'z guruhlarida kengashib, materialni modellashtiradilar, guruh bo'yicha umumlashtirilgan jadval tuziladi. Jadvalada To'ra Sulaymonga zamondosh bo'lgan shoir yoki olimlarning fikrlari yozilgan matn asl holida qanday bo'lsa shunday (slayd orqali) o'qib beriladi.

Misol uchun:

ZAMONDOSHLAR	
Umrzoq O'ljaboyev	Ravshan Mahmudov
<i>To'ra aka shoir bo'lganda ham qandaydir mahalliy, hududiy ahamiyatga ega bo'lgan shoirlardan emas edi. U kishi katta adabiyotimizda – hozirgi o'zbek adabiyoti deb ataladigan ulkan ijodiy saltanatda o'z o'rniga, o'z salmog'iga ega bo'lgan ijodkor edi. Agar she'ri gulga qiyos qiladigan bo'lsak, adabiyotimizning bu salobatli bo'stonida To'ra aka ekan gullarning rangi, hidi va tarovati alohida ajralib, "mana men" deb ayricha ko'zga tashlanib turadi. She'riyat maydoniga xalq og'zaki ijodi namunalarini yozib olish, ularni matbuot sahifalarida e'lon qilib, targ'ib etish orqali kirib kelgan shoir umrining oxiriga qadar ham ijodida shu yo'nalishga, sodda va xalqona ifoda usuli va vositalariga sodiq qoldi. Ana shu oddiy, bizga tanish bo'lgan insoniy holatlar va kechinmalar tasvirida bizga zamondosh bo'lgan lirik qahramon qiyofasini yorqin bir tarzda ifodalab berishga muvaffaq bo'ldi.</i>	<i>To'ra Sulaymon — muhabbat kuychisi. Muhabbat insonni loqaydlikdan, jaholatdan saqlaydi. Muhabbat insonlarni bir-birlariga yaqinlashtiradi, do'stlashtiradi. To'ra Sulaymon — ona kuychisi. Uning she'rlarida onalarning orzu-armonlari, g'am-tashvishlari ishonarli, tabiiy kuylangan.</i> <i>To'ra Sulaymon — baxshi shoir. She'rlari xalq tiliga, diliga yaqin. Shoir xalq og'zaki ijodini yozma adabiyotga yaqinlashtirgan. To'ra Sulaymon she'rlarining aksariyati baxshiyona uslubda yozilgan. Siz biron marta osmonga oy chiqqanda yoki oy to'lib, kunday yorug' bo'lganda uni kuzatganmisiz? Men kuzatganman. Ammo oyning o'rtanganini payqamaganman. Kutilmagan o'xshatish shoirning topqirligidan nishona. Haqiqatan ham, butun bir osmonda yakkaligidan, yolg'izligidan, zerikkanidan, yo'ldoshi, hamsuhbati, dardkashi yo'qligidan oy o'rtanayotgandir. Bu holatni boshidan kechirgan faylasuf shoirgina tiniq osmondagi oyga qarab uning o'rtanganini seza olgan.</i>

Shundan so'ng guruh liderlari guruhlar tomonidan tayyorlangan matn bilan sinf o'quvchilarini tanishtiradilar. Barcha guruhlar o'z fikrlarini izohlab bo'lgach, yuqori darajada faoliyat olib borgan guruh rag'batlantiriladi. Dars davomida guruhlar bilan ishlashda, yangi vazifa berilayotganda guruhdagi o'quvchilarni, liderlarni almashtirib turish lozim. Bu bir guruhga bilimdon o'quvchilar saralanib qolishining oldini

oladi va barcha o‘quvchilarning faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi. O‘quv faoliyatini bunday tashkil etish natijasida o‘quvchilar uyga vazifa berilmasa ham, shu o‘quv materialini ustida bosh qotirishga, ishlashga, izlanishga ishtiyoq sezadilar, yangi-yangi qirralarini ochishga harakat qiladilar, bu esa o‘quv materialini mukammal o‘zlashtirishlarga zamin yaratadi.

Shoir haqida eng kerakli ma’lumotlar guruhda muhokama etilganidan so‘ng shoir she’rlari tahliliga o‘tiladi.

*Suvlar ham tindi sunbula kelib,
Tinib-tiniqmadi bu ko‘nglim, hayhot.
Na bahor, na yozdan, na to‘kin kuzdan
Hecham qoniqmadi bu ko‘nglim, hayhot.*

“Qismat” deb atalgan she’rdan keltirilgan ushbu parchani o‘qiganda qishloq suvrati kishining xayoliga keladi.

*Bu yulduzlar kimning kanizagi deb,
Kimni aytar tunning ko‘rk, bezagi deb,
Quyoshning ko‘kdagi egizagi deb,
Osmon o‘rtasinda nozlanadir Oy.*

To‘ra Sulaymon uchun Oy nozlangan. Oyning “armonlangani”ni, horg‘in suzayotganligini, bezovtalanganini, tutilganligini, to‘lg‘onganini, iztirobdaligini, to‘xtab qolganligini, ma’yuslanganligini, azoblanganligini, tebranganligini, o‘rtanganligini, qo‘rg‘onlanganligini sezish, his qilish uchun faqat To‘ra Sulaymon bo‘lish kerak.

To‘ra Sulaymon nazari, didi, salohiyati bilan osmonni kuzatish va u haqida mulohaza yuritish lozim. Osmondagi oddiygina suzib ketayotgan

oydan ham To‘ra Sulaymon olam-olam ma’no topadi. Qizig‘i shundaki, bu ma’nolar, g‘oyalar, fikrlar insonni loqayd qoldirmaydi. Bu she’r shoir ehtirosining, hissiyotining, idrokining o‘ta kuchliligidan, nozikligidan dalolat beradi.

Chunonchi, uning yuqorida tahlilga tortilgan *“Iltijo”, “Armon”, “Tavallo” va “Gul bir yon, chaman bir yon”* singari she’rlari o‘quvchilarda mehr, hurmat, ota-onaga, vatanga sadoqat kabi insoniy fazilatlarni uyg‘otadi.

To‘ra Sulaymonning *“Bahor, sensiz sahro-yu tog‘-u toshga jon qayda?”* degan satrlarida qanchalik chuqur hayotiy hikmat bor. Vatangado kimsalarga ishora qilingan ushbu misralar yurtparvarlikning go‘zal namunasidir. Bu o‘lmas satrlar bizning bugungi hayotimiz bilan hamohang jaranglaydi.

Sharqona ta’lim tizimida komil inson, ma’naviy yuksaklik hamisha bosh maqsad bo‘lib kelgan. Umuman, mazkur muammo davlat buguni va kelajagini hal qilgani uchun barcha davrda hamma uchun muhim sanalgan. T.Sulaymonning xalqona ohanglarda yozilgan

“Bu olamda oy tanho, muborak quyosh tanho,

Bo‘y qizlarning ichida bir shu egma qosh tanho”

kabi misralari fikrimiz dalilidir.

To‘ra Sulaymon asarlarini o‘qigan o‘quvchi qalbida beixtiyor o‘z Vataniga, uning har bir giyohiga hurmat uyg‘onishi shubhasizdir. Quyi sinflarda bu asarlar chuqur his qilinmasdan, shunchaki o‘qilishi mumkin, ammo yuqori sinf o‘quvchilari chuqur mazmun kasb etgan shoir asarlarini yurakdan his qilib o‘qiydilar.

***Bukun qay bir yerda qish, qayda xazonrezgilik,
Qaylarda yoz, qayda kuz, qayda jondan bezgilik,
Ko'klamning har nafasi umrga arzigulik,
Bog'siz, bog'bonsiz yerda ne ham qilsin ezgulik...
Ketma, bahor, mening bog'imdan.***

Demak, adabiyot o'qituvchisi o'quvchilarni ajdodlarimizning dunyo fani va madaniyati, qolaversa, ma'naviyati rivojiga hissa qo'shgan asarlari bilan tanishtirib borar ekan, shunda o'quvchida milliy iftixor tuyg'usi va o'zligini anglash uchun ilmni egallash istagi uyg'onadi.

She'r ifodali qilib o'qib beriladi va o'quvchilar savol va topshiriqlar orqali she'rni tahlil etadilar. Har bir qatordagi juftlik kelishilgan holda, o'z fikrlarini bayon etadi. Savollarga ketma-ketlikda javob beriladi. Bunday usul "Charxpalak" deb nomlanadi. Bu usulda ishlash juda ham qulay.

Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadi. Har bir qator tarqatmali material oladi, tarqatmaga she'r yuzasidan savollar yozilgan bo'ladi. Birinchi guruh beshta savolning har biriga juftlik tarzida javob berishadi. Ya'ni, birinchi juftlik birinchi savolga, ikkinchi juftlik ikkinchi savolga, uchinchi juftlik uchinchi savolga va shu tarzda beshta savolga javob beriladi. Ish yakunida umumiy xulosa chiqariladi.

Uyga vazifa sifatida T.Sulaymonning she'rlaridan yod olish va o'tilganlarni mustahkamlab kelish topshirig'i beriladi.

Uyga vazifani bajara olmagan o'quvchilar bilan quyidagi tarzda ishlanadi. Buning uchun xattaxtada ro'yxati keltirilgan va uyga vazifani

bajargan o'quvchilarga bajarmaganlari biriktiriladi. Agar bajarganlar kamchilik, masalan, 3 yoki 4 nafar bo'lsa, sinf o'quvchilarini shu o'quvchilar soniga teng guruhlariga bo'linadi. Ya'ni 4ta guruhga bo'linadi va to'rtala guruhga uyga vazifani bajarib kelganlar biriktiriladi. O'qituvchi faol o'quvchilarga quyidagicha topshiriq beradi: guruhingizdagi o'rtoqlaringizga parchani bo'lib bering va shu qismni yodlashlarini nazorat qiling.

Izoh. Bu usul uyga vazifani bajara olmagan o'quvchilar bilan alohida ishni tashkil qilishda qo'llaniladi. Bunda oldindan faol o'quvchi sust, uyda vazifa qilishga vaqti bo'lmagan yoki boshqa sabablarga ko'ra qila olmagan, imkoni o'zinikiga teng o'rtoqlari bilan ishlaganda o'zaro hurmat va yordam ustuvorligini anglamog'i uqtirilgan bo'lishi lozim. Bu usul ahamiyati barcha o'quvchining jarayonda ishtirok etishini ta'minlash va keyingi bosqichlarda uyga vazifani tayyorlash muhimligini anglatish bilan belgilanadi. Uyga vazifani baholashda xattaxtada ro'yxati keltirilgan o'quvchilardan tashqari guruhdagi ishlari bilan ijobiy natijaga erishganlari ham baholanadi. Aynan shu vaziyat o'zlashtirishi sust o'quvchilarga tabaqalashgan tarzda yondashuvni ta'minlaydi. Chunki sust o'zlashtiruvchi o'quvchi bor guruhda ishlaganda unga yodlash emas, balki ifodali o'qish topshirilishi ham mumkin. Ya'ni u guruhdoshlariga parchani ifodali o'qib beradi. Guruhdoshlari esa imkoniyatini bilganliklari uchun uni qo'llashadi. Bundan tashqari ushbu darsda o'quvchilarga shoir ijodi yuzasidan test savollari tarqatiladi, ular orqali o'quvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalari baholanadi.

Xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, o‘z taqdirini o‘zi belgilab, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shuningdek, taraqqiyparvar davlatlar tajribasini ijodiy o‘rganib yuksak intilishlar bilan yashay boshladi. Ajdodlar tanlagan yo‘lni milliy g‘ururga ega, barkamol, vatanparvar avlodlarga davom ettira olishadi. Chunonchi, buyuk shoh va shoir Boburning 9-sinfda o‘rganilishi mo‘ljallangan “Boburnoma” asarini o‘tishda o‘zimiz qo‘llagan zamonaviy ta’lim usuli tavsifini keltiramiz.

9-SINF

Dars mavzusi: “Boburnoma”- qomusiy asar.

Maqsad: “Boburnoma” asari yuzasidan o‘quvchilarning tasavvurlarini kengaytirish, bilimlarini tizimlashtirish.

Kutilayotgan natija: o‘quvchilar yakka, juftlikda va guruhlarda ishlash orqali asarning badiiyati, syujeti va undagi asosiy timsollar hamda asarning tarbiyaviy jihatlarini mustaqil o‘zlashtiradilar.

Jihozlar: “Boburnoma” asari mazmuni aks etgan matn, darslik, mavzuga oid adabiyotlar, lug‘at, Bobur ensiklopediyasi.

Jarayonning borishi:

1-bosqich. O‘qituvchi o‘quvchilarga “Boburnoma” yuzasidan bilganlarini daftarlariga yozishni taklif qiladi (5 daqiqa).

2-bosqich. Juftliklarda ishlanadi. Topshiriq: juftingiz bilan yozganlaringizni umumlashtiring.

3-bosqich. O‘qituvchi o‘quvchilarni ixtiyoriy usullar (kartochkalar yoki oddiy sanash) orqali guruhlarga ajratadi.

4-bosqich. Yakka va juftliklarda yozilgan ma'lumotlarni guruhingizda tahlil qiling. Yig'ilgan ma'lumotlarni quyidagi jadval bo'yicha javob bering. Har bir guruhga jadval tushirilgan flipchart (katta bichimli) qog'oz tarqatiladi.

«BLITS SO'ROV» metodi: "Bobur ijodini bilamanmi?"

1	2	3	4
Misollar	O'quvchining javobi	To'g'ri javob	Javob uchun ajratilgan ball
Bobur hayot yo'li			
Adib ijodiy merosi			
Xalqaro Bobur jamg'armasi			
Bobur qanday oromgohlar tashkil etdi?			
Topilmagan asarlari			
Ruboiylarining mavzusi			
Mehnatingiz mahsuli muborak bo'lsin!			

O'quvchilar ushbu jadvalni o'z imkoniyati darajasida to'ldiradilar. 5-sinfda Bobur ijodi o'tilgani ularga qo'l keladi.

5-bosqich. Guruhlarda ish davom etadi. O'qituvchi doston bo'yicha quyidagi sarlavhalar aks etgan matnni tarqatadi:

1-guruhga: Andijon - Farg'ona viloyatining poytaxti;

2-guruhga: Marg'inon Andijonning g'arbidadur;

3-guruhga: Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdindur.

4-guruhga: Xo'jand shahri tavsifi;

5-guruhga: Isfara viloyati to'rt bo'luk ko'hpoyadur.

3-guruh tarqatmasidan namuna:

Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shafoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni ramazon oyining beshida tarix sakkiz yuz to‘qson to‘qquzda Farg‘ona viloyatida o‘n ikki yoshta podshoh bo‘ldum.

Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma‘muraning kanorasida voqe bo‘lubtur. Sharqi Koshg‘ar, g‘arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog‘lar, shimolida agarchi burun shahrlar bor ekandur, misli: Olmoliq va Olmotu va Yangi kim, kutublarda Tarozkent bitirlar, mo‘g‘ul va o‘zbek jihatdin bu tarixda buzulubtur, aslo ma‘mura qolmabdur. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdogirdi tog‘ voqe bo‘lubtur. G‘arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qtur. Ushbu jonibtin o‘zga hech jonibtin qish yog‘iy kela olmas. Sayhun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a mashhurdur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar, Xo‘jandning shimoli Fanokatning janubi tarafidinkim, holo Shohruxiyag‘a mashhurdur, o‘tub yana shimolg‘a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xeyli quyiroq bu daryo tamom qumg‘a singar, hech daryog‘a qotilmas.

6-bosqich. Kichik guruhlarda o‘quvchilar o‘zlariga berilgan matn bilan tanishib chiqadilar.

7-bosqich. Har bir guruh o‘z flipchart qog‘ozlarini taqdim qiladi. Ish qog‘oziga yozilgan to‘ldirishlar yuzasidan qisqacha sharhlar keltirish asosida taqdimot o‘tkaziladi.

8-bosqich. O‘quvchilar xattaxtdan o‘zi uchun muhim yoki murakkab hisoblangan ma‘lumotlarni daftarlariga yozib olishadi.

9-bosqich. Uyga vazifa: darslikdan shu mavzuni o‘qib, darsda olgan ma’lumotlarga taqqoslash.

Bobur asarlarini o‘rganishda konferensiya, nazmiy musobaqa, mushoira kabi darslarning turlaridan foydalanish o‘quvchi va o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchi munosabatlarini faollashtirish, jarayonda o‘zaro yordam, hamkorlikning ustuvorligi dars ko‘zlagan maqsadga erishishda keng imkoniyat yaratdi. Masalan: konferensiya darsidan biror bir mavzu, bob tugallanganda yoki o‘quv choraklari yakunida qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Maktablarda shu mavzuda konferensiya darslari tashkil qilishda “Boburnoma” asari yuzasidan savol-topshiriqlar, krossvordlar, testlar oldindan tayyorlandi. O‘quvchilarga “Boburnoma”dagi joy nomlari mazmuni oldindan taqsimlab berildi. Asardagi Bobur davri, Andijon, Hindiston va jamiyat aks etgan tasvirlar diafilm shaklida tayyorlanadi.

“Bobur yashagan davrga sayohat” mavzusidagi mustahkamlash darsi o‘quvchilarni mustaqil izlanishga, ijodiy fikrlashga, o‘sha davrni tasavvur qilish orqali hozirgi zamonga xolisona baho berishga o‘rgatishda o‘z samarasini beradi. Ushbu dars turi, ayniqsa, san’at, adabiyot, tarix muzeylariga sayohatlar uyushtirilgandan so‘ng o‘tilsa, o‘quvchilarda ijodiy tafakkur rivojlanibgina qolmay, ularda o‘ziga ishonch, mavzuga qiziqishlari ortadi va o‘z bilganlaridan qanoat tuyishga o‘rganadi.

10-SINF

Mavzu: Abdulla Qahhor ijodi.

Maqsad: o‘quvchilar ongiga A.Qahhor ijodi va uning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalarni singdirish.

Kutilayotgan natija: o‘quvchilar “A.Qahhor ijodi” bo‘yicha tarqatma matnini mustaqil holda o‘qiydilar va o‘rgangan ma’lumotlarini “bilar edim”, “bilib oldim”, “bilmoqchiman” larga ajratadilar.

Jihozlar: Mavzu bo‘yicha (sinfda nechta guruh bo‘lsa), har bir guruh uchun A.Qahhor ijodi mazmuni kichik guruhlarda necha nafar ishtirokchi bo‘lsa, shuncha nusxada (yoki har bir kichik guruhlariga) tarqatiladi. Mazmun, ya’ni asar matni, oddiy qalam (sinfdagi o‘quvchilar soni bilan teng sonda), mavzuga oid adabiyotlar, lug‘at, darslik.

“Abdulla Qahhor ijodi” mavzusi yuzasidan dars jarayonida qo‘llaniladigan tarqatmalar matni quyidagicha bo‘lishi mumkin.

1. Abdulla Qahhor ijodining XX asr o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni.
2. O‘zbek hikoyachiligi taraqqiyotida A.Qahhor asarlarining ahamiyati .
3. Abdulla Qahhor asarlarida mavzu rang- barangligi.
4. Abdulla Qahhorning o‘tmish va zamonaviy mavzudagi hikoyalari bugungi kun ko‘zgusida.
5. Abdulla Qahhor hikoyalarida ma’naviy-axloqiy muammolarning qo‘yilishi

“A.Qahhor ijodi” mavzusi yuzasidan tayyorlangan tarqatmalardan namuna:

**“Abdulla Qahhor ijodining XX asr o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni
(1-guruh uchun)”**

XX asr - o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida o‘ziga xos va murakkab bosqichlardan biri hisoblanadi. “Kuni kecha o‘z yakunini topgan XX asr o‘zbek adabiyoti, - deb yozadi ulkan adabiyotshunos olim Naim Karimov, - ko‘p asrlik milliy adabiyotimiz tarixida alohida o‘rinni egallaydi. Garchand XX asr adabiyotining aksar namoyandalari sobiq sovet davrida yashab ijod etgan va ularning shu davr mafkurasi ta’siridan xoli bo‘lmagan esa-da, milliy adabiyotimiz xuddi shu davrda jahon adabiyotining badiiy yutuqlaridan, mumtoz va zamonaviy shoir – yozuvchilarning ijodiy tajribasidan bahramand bo‘ldi. Bu hol o‘zbek adabiyotining badiiy imkoniyatlarini mislsiz darajada kengaytirib yubordi”¹ Bu davr adabiyoti haqiqatan ham sharoit taqozosi bilan betinim yangilanib bordi, bu yo‘lda juda ko‘p qiyinchiliklar, kurash, bahs-munozaralar, kashfiyot va yo‘qotishlarga duch keldi. Bu davr adabiyoti uch xil ijtimoiy tuzum- rus chorizmi istibdodi, sobiq sho‘rolar hokimiyati va istiqlol davri, shuningdek, xilma-xil siyosiy-mafkuraviy oqimlar, ya’ni jadidchilik, bolshevizm va kommunistik, so‘nggi ikki o‘n yillikda esa milliy istiqlol mafkurasi ta’sirida taraqqiy etdi.

Yangi xususiyatlarga ega bo‘lgan XX asr o‘zbek adabiyotining shakllanishida, uning Yevropa va jahon adabiyotining eng yaxshi an‘analarini o‘zlashtirish tomon yuz tutishida shu asr boshlarida badiiy

¹ XX asr adabiyoti manzaralari. -T.:“O‘zbekiston”, 2008. 6-bet.

ijod bilan shug‘ullangan, adabiyotimizning birinchi avlodiga mansub bo‘lgan yozuvchilarning xizmatlari beqiyosdir. Tarixda “jadid yozuvchilari” deb nom qoldirgan bu avlodning fidoyi vakillari adabiy jarayonga yangi sifat xususiyatlarini olib kirishga, yangi janrlarni shakllantirishga, shu tarzda ko‘p asrlik tarixga va adabiy an‘analarga ega bo‘lgan so‘z san‘atimiz ufqlarini yanada kengaytirishga, uni jahon adabiyoti darajalariga yaqinlashtirishga astoydil harakat qildilar. Bu harakatlarning boshida Mahmudxo‘ja Behbudiy, A.Avloniy, Fitrat, A.Qodiriy, Cho‘lpon kabi va yana boshqa qator ijodkorlar turdilar.

A.Qahhor shu avlodning eng ko‘zga ko‘ringan, ijodi qator o‘ziga xos xususiyatlari bilan alohida ajralib turadigan vakillaridan biridir. U, garchi dastlabki mashqlarini she‘r yozishdan boshlagan va bu yo‘nalishda bir necha namunalar yaratgan bo‘lsa-da, keyinchalik butun e‘tiborini nasriy asarlar yozishga qaratdi. U prozaning barcha janrlarida, chunonchi, romanchilik, qissachilik, hikoyachilik, ocherkchilik, fel’etonchilik kabi deyarli hamma sohalarida ijod qilgan. “Sarob”, “Qo‘shchinor chiroqlari” kabi romanlari garchi ijodiy tarixi murakkabroq kechgan hisoblansa ham, o‘zbek romanchiligi tarixiida o‘rni bor asarlar sarasiga kiradi Hatto bir nechta dramatik asarlar ham yaratgan. Bu asarlarining ichida juda mashhur bo‘lganlari, hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelayotganlari bor. Hayotligida eng nufuzli mukofotga shu janrda yozgan asarlaridan biri orqali sazovar bo‘lgan. Lekin A.Qahhorning nomi tilga olinsa, birinchi navbatda o‘quvchining xayoliga yozuvchining nasrda yaratgan asarlari, xususan, hikoyachilikdagi ijodi keladi. “Qahhor tug‘ma hikoyanavis edi, - deb

yozadi unga zamondosh bo'lgan rus adibasi Bat, - garchi u romanlar ham yozdi, lekin baribir kichik janrga muhabbati ularda ham sezilib turadi”¹. Demak, uning boshqa janrlarda yozgan asarlarini kamsitmagan va ularning ham XX asr o'zbek adabiyoti rivojida o'rni bor ekanini ta'kidlagan holda, A.Qahhorning qalamiga mansub qator yetuk hikoyalar nafaqat uning o'zining, balki XX asr o'zbek hikoyachiligining rivojida va hatto jahon novellistikasi taraqqiyotida ham alohida o'rin tutadi, deyilsa to'g'ri bo'ladi. Taniqli rus adabiyotshunosi V.Smirnovaning “Abdulla Qahhorning shunday hikoyalari borki, ularni jahon novellistik adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatorga qo'yish mumkin” deya, bildirgan yuqori darajadagi bahosi buning tasdig'i bo'lishi mumkin². Bunda yozuvchining “Anor”, “Bemor”, “O'g'ri”, “Tomoshabog'” kabi qator hikoyalarini nazarda tutadi.

Yuqorida aytilganlarni xulosalab shunday deyish mumkin: A.Qahhor badiiy ijodning hamma yo'nalishlarida qalam tebratib ko'rgan – she'rlar ham yozgan, dramatik asarlar ham yaratgan. Lekin hayot, ozmi–ko'pmi qilib ko'rilgan tajribalar unga nasr yo'nalishi yaqin ekanligin ko'rsatdi. Uning iste'dodi xususiyatlariga, badiiy tafakkur tarziga aynan shu yo'nalishdagi izlanishlari mos kelishi adabiy jarayonda o'z isbotini topa boshladi. Adabiyotimiz rivojida o'z o'rni va salmog'iga ega bo'lgan qator roman va qissalar yaratdi. Bu asrlardan ayrimlari turli darajadagi mukofotlarga ham sazovor bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, yozuvchining nasrning katta shakillarida yozilgan asarlari uning yetuk hikoyalarichalik ayricha yuksak cho'qqilarga ko'tarila

¹ A.Qahhor zamondoshlari xotirasida. –T.: G'ulom nashriyoti. 1987- yil, 15-bet.

olmadi. Garchi u bu janrda yozgan asarlari uchun alohida bir mukofotga sazovor bo'lgan bo'lmasada, nafaqat o'zimizda, balki yuqorida ko'rganimizdek, undan tashqarilarda katta yozuvchilik shuhratiga, yuksak e'tiroflarga muyassar bo'ldi.

Jarayonning borishi:

1-bosqich. Sinf o'quvchilari 5ta kichik guruhga bo'linadilar. Guruhga ajratish o'qituvchining ixtiyoridagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

2-bosqich. A.Qahhor ijodi yuzasidan tayyorlangan matn mazmunlari guruhlariga tarqatiladi. Demak, 5ta guruhga 5ta mavzu (yozuvchining ijodi bo'yicha tarqatma) bo'yicha 5 xil mazmundagi matn tarqatiladi. Matn guruh ishtirokchilari soni bilan teng nusxada tayyorlangan bo'ladi, ya'ni kichik guruh tarkibi 5 nafar o'quvchidan tashkil topgan bo'lsa, 5ta bir xil mazmundagi matn beriladi.

3-bosqich. Kichik guruhlarining barcha ishtirokchilari o'zlaridagi matn bilan tanishib chiqishlari kerakligi aytiladi. Topshiriqni bajarish uchun 15 daqiqa vaqt belgilanadi. Bunda o'quvchilar o'qigan matnining o'ziga qora qalam bilan **“Q”** (bilar edim), **“?”** (bilmoqchiman), **“!”** (bilib oldim) kabi shartli belgilarni qo'yib chiqadilar. Topshiriq uchun vaqt tugagach, o'qituvchi jarayonni to'xtatadi.

4-bosqich. Topshiriq: kichik guruhdagi o'rtoqlaringiz bilan bilmoqchi bo'lgan ma'lumotlari yuzasidan fikrlashing (bunda bir o'quvchi uchun yangilik bo'lmagan ma'lumot, boshqasi uchun yangilik bo'lishi mumkinligi uchun o'quvchilar bir-birlarini navbat bilan tinglashlari kerak bo'ladi).

Izoh. Bu usul qo'llanilganda o'qituvchidan har bir guruh yoniga borib, o'quvchilar bilib olishni istagan ma'lumotlar yuzasidan qisqacha yo'nalishlar berishi kerak bo'ladi.

5-bosqich. Topshiriq: Guruhingizda o'rgangan, o'zlashtirgan ma'lumotlaringizni boshqa guruh ishtirokchilariga yetkazish bo'yicha taqdimot tayyorlang.

Izoh. Bunda har bir guruh o'ziga yuklatilgan maqolat bo'yicha mazmunni tengdoshlariga yetkazish uchun boshlovchini tanlaydi va uni tayyorlaydi.

6-bosqich. Guruhlar o'z taqdimotini amalga oshirgach, o'qituvchi o'quvchilarga eshitib, ko'rganlarini daftarlariga yozishni taklif qiladi.

7-bosqich. O'qituvchi o'quvchilarni kichik guruhlarda va umuman jarayonda ishtirok etishiga qarab baholaydi va uyga vazifa topshiradi. Uyga vazifa: "A.Qahhor ijodi" yuzasidan savollar tuzish. O'quvchilarga uyga vazifani to'liq tushuntirish maqsadida testdan bir namuna xattaxtada ko'rsatiladi. O'qituvchi ushbu namunani plakatda oldindan tayyorlagan bo'ladi.

11-SINF

**Dars mavzusi: Erkin Vohidovning hayoti va ijodi.
"Ruhlar isyoni" dostonini o'rganish.**

Tayanch tushunchalar: she'riyat, to'rtlik, lug'at, jadval, adabiyot, nazm, tahlil, ijod, lirika.

Feel – his qilmoq

Library – kutubxona

Unknown – notanish

Understand – tushunmoq

Darsning maqsadi:

a) talimiy maqsad: Ushbu mavzu orqali talabalarga E.Vohidov hayoti va ijodi haqida bilim berish. “Ruhlar isyoni” dostonida syujet mukammalligi va ijtimoiy muammolarning badiiy tahlili.

b) tarbiyaviy maqsad: E.Vohidov she’rlari tahlili orqali yurtparvarlik, erklarparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish

c) rivojlantiruvchi maqsad: Shoir she’riyatida lirik qahramon kechinmalari yuzasidan suhbat uyushtirish.

Dars jihozi: Darslik, shoirning portreti, shoir ijodiga oid videolavha, E.Vohidov she’rlari bilan kuylangan qo‘shiqlar albomi, mavzuga oid qo‘llanma, test savollari, tarqatma savollar, shoirning she’riy to‘plamlari.

Darsning uslubi: Aralash (“BBB” usuli, “Keys-stady”, kichik guruhlarda ishlash, savol-javob, tahlil usuli, “Zig-zag”).

Darsning borishi:

1. Darsni tashkil qilish: (1-5 daqiqa)

a) salomlashish, yo‘qlama; o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish, yangiliklar;

b) darsga tegishli o‘quv qurollarini yozuv taxtasiga ilish va yozuv taxtasiga mavzuni yozish;

c) Darsda guruh o‘quvchilari to‘rt guruhga bo‘linadi har bir guruh shoir ijodidan kelib chiqib o‘zlariga nom va shior tanlashadi.

2. O‘tilgan mavzuni so‘rash.

Adabiyot fanining o‘tilgan bobi yuzasidan o‘quvchilar bilimini aniqlash va faollikka undash maqsadida “Eng, eng, eng...” adabiy o‘yini o‘tkaziladi.

Har 2 guruhga konvertda 8 ta savol beriladi. Talabalar o‘ylamay, tayyorlanmay savollarga javob berishlari kerak bo‘ladi. Savollar quyidagicha:

Birinchi guruhga:

1. Eng birinchi badiiy dostonni ayting.
2. Turkiy adabiyotdagi eng birinchi yirik asar qaysi?
3. Turkiy adabiyotdagi eng birinchi didaktik asar qaysi?
4. Eng birinchi o‘zbek romani qaysi?
5. Eng birinchi xamsanavis kim?
6. Mumtoz adabiyotda eng kichik she’riy janr qaysi?

Ikkinchi guruhga:

1. Eng birinchi yozma yodgorliklarimiz nechanchi asrda yaratilgan?
2. Noma janrida eng birinchi asar kim tomonidan yaratilgan?
3. O‘rxun - enasoy yodgorliklarini eng birinchi bo‘lib kim o‘qishga musharraf bo‘lgan?
4. Turkiy tilda yaratilgan eng birinchi yirik asar muallifi kim?
5. Eng birinchi g‘azal namunalari kimning ijodida uchraydi?
6. O‘zbek adabiyotida eng birinchi bo‘lib hadislar yaratgan alloma kim?

3. Yangi mavzu bayoni: Yangi mavzu quyidagi reja asosida bayon etiladi:

.

Reja:

1. E.Vohidov hayoti va ijodi haqida ma'lumot.
2. Shoir she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
3. E.Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni.
4. E.Vohidov hajviyoti.

Kompyuter ekranida E. Vohidov haqidagi lavha namoyish etiladi:

Guruhlar o'rtasida "Siz shoirni qay darajada bilasiz?" musobaqasi o'tkaziladi. Buning uchu har bir guruh azosi shoir haqida bittadan ma'lumot aytadi. Takror yoki noto'g'ri ma'lumot aytgan, to'xtab qolgan guruh a'zosi o'yinni tark etadi. O'yin davomida shoir she'rlari ham yod aytilishi mumkin. O'yin juda tez, o'ynashga u qadar imkoniyat berilmagan uyushqoqli va asosiysi hamma o'quvchilar ishtirokida o'tkaziladi. Bu o'yinda har navbat kelganda mantiqli ma'lumot ayta olgan o'quvchilar aniqlanadi va o'yin vaqti imkoniyatiga qarab, 1 ta yoki 2 ta, 3 ta ishtirokchi qolishi mumkin. Ular shoirni "eng yaxshi tanuvchilar" hisoblanadilar.

Guruh sardorlari "BBB" usuli orqali o'zlarini sinab ko'radilar.

Erkin Vohidovning hayoti va ijodi yuzasidan o'quvchilarning bilimlari xattaxtdagi ushbu ko'rgazmalar orqali umumlashtiriladi: Slayd orqali ekranda (yoki doskaga avvaldan tayyorlangan jadval ilinadi) uch qismga bo'lingan jadval ko'rsatiladi.

"BBB" usuli. O'z guruhingizda juftlikda ishlagan ma'lumot (tarqatmalarda mavzu yuzasidan tayyorlangan matn bo'ladi) laringizni tahlil qiling, umumlashtiring va quyidagi jadvalning 1-ustunini to'ldiring: vaqt — 7 daqiqa.

Bilganlarim	O‘rganganlarim (dars jarayonida)	O‘rganmoqchiman

Bu topshiriqni tekshirish uchun o‘quvchilarga yuqoridagi jadval chizilgan flipchart qog‘ozi beriladi. Shundan so‘ng doston matni o‘qiladi va lug‘at ustida ish olib boriladi.

"Ruhlar isyoni " dostonini o‘qish:

Ifodali va sharhlab o‘qishlar amalga oshiriladi.

Lug‘atlar ustida ishlash:

olomon	kudurat	jaholat
Riksha	komiron	Hind bahri
xunrezlik	mehrob	qutqu
nifoq urug‘i	mazlum	qabohat
Veda	g‘azot	basir
ishtiboh	sarbaland	xurofot
gumroh	g‘ofil	fatvo
mushfiq		

Bahs-munozara uchun quyidagi savollar o‘rtaga tashlanib, “Aqliy hujum” tashkil etiladi. Talabalarga oldingi darsda dostonni uyda mustaqil o‘qib kelish topshirig‘i berilganligi uchun ushbu jadvaldagi aloqadorlikni sharhlash vazifasi topshiriladi va o‘quvchilarning javoblari izohlanib, to‘ldiriladi badiiy tasvir vositalari, tili va uslubi, dostonning nomlanishi haqida tushuncha beriladi:

Mavzuni mustahkamlash uchun "Ruhlar isyoni" dostonidan parchalar o'qitilib, sharhlanadi. Talabalarning doston haqidagi fikr va mulohazalari tinglanadi.

Tarqatma material nusxasi

- “Ruhlar isyoni” dostonining mavzu doirasi nimalardan iborat?
- Hindlar bilan musulmonlar o'rtasidagi nizo keltirib chiqarilishidan kimlar manfaatdor?
- “Tug'ilgansan ozod, mudom ozod bo'lib qol” misralari dostonning mazmuniga qay darajada aloqador?
- “Haqsizlikka ko'ndi olam, ammo shoir ko'nmedi...” satrlari haqida fikr bildiring.
- O'zbek xalqida ham Nazrul Islom taqdiriga o'xshash taqdirli shoirlar bormi?
- Hakim o'zi bilan olib ketgan hikmat haqida mulohaza yuriting.
- Dostonda berilgan rivoyatlar doston mavzusi bilan qanday bog'langan?
- “Eldan omad ketsa, Dastlab hamjihatlik yo'qolgay” misralarining mazmunini sharhlang.
- Doston misolida Odam, Olam, Hayot va yashashdan maqsad kabi tushunchalar haqida o'ylab ko'ring.
- “Tug'ilgansan ozod, mudom ozod bo'lib qol” misralariga hamohang misralari yana qaysi shoirda uchraydi?

Yakuniy bosqichda mavzuga oid boshqotirmani yechish har ikki guruhda musobaqa tarzida amalga oshiriladi, Boshqotirmani yechish

natijalari bo'yicha savol-javob o'tkaziladi, noaniqliklarni oydinlashtiriladi. G'olib guruh aniqlanadi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa sifatida "Olam. Odam. Hayot va men" mavzusida esse yozib kelish topshiriladi. Esse yozish qoidalari tushuntiriladi. Hozirgi kunda mahoratli til-adabiyot o'qituvchilari o'z ish faoliyatlari davomida ijodiy ish, esselardan foydalanishmoqda.

O'N MINUTLIK ESSE

Esse – bu muallifning individual nuqtai nazarini ifoda etish shakli bo'lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o'z ichiga oladi.

O'n minutlik essenini yozish qoidalari ("Men sevgan shoir" mavzusida):

1. Taklif etilgan mavzuga doir so'zlar hajmi 500 tadan 1000 tagacha bo'lishi mumkin.
2. "Siz shoirni qay darajada bilasiz?" "Erkin Vohidov deganda ko'z oldimga ... keladi", "Mening fikrimga ko'ra el ardog'idagi shoir ... bo'lishi kerak" kabi jumalardan foydalaning.
3. O'zingiz havas qilgan, siz uchun ideal bo'lgan shoir misolida orzuvingizdagi shoir timsolini gavdalandiring.

Ikkinchi bobda bildirilgan nazariy fikrlar va amalga oshirilgan amaliy tadbirlarning natijalariga tayanib, quyidagicha ilmiy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim usullari o‘qituvchidan har bir darsga alohida tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Chunki biror bir interfaol usulni tanlab amaliyotga qo‘llashdan oldin o‘qituvchi:

- ushbu usulning o‘z o‘quvchilarining yoshi, rivojlanish darajasi, qiziqishlari, aqliy imkoniyatiga mos kelishiga;

- ayrim interfaol usullar sinf xonasida o‘quvchilarning tez-tez joy o‘zgartirishi, harakatlanishini taqozo etgani uchun sinf xonasida bemaolol harakatlanish maydonining mavjudligiga;

- mavzu maqsadi, turi, mavzusi uning mazmuniga to‘g‘ri kelishiga;

- darsdan kutilayotgan maqsadga erishish uchun sarf qilinadigan vaqt chegaralanganiga;

- darsda lozim bo‘lgan didaktik va texnik vositalarning mavjudligiga;

- dars jarayonida sodir bo‘ladigan chekinishlar, taktikaning o‘zgarishi kabi holatlarda alternativ yondashuvlarni qo‘llashga tayyor bo‘lishi lozim.

- Ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim usullaridan foydalanishda o‘quvchilarning imkoniyatlari bu usullarning maqsad va vazifalariga mos kelishi, o‘qituvchining o‘quvchilar guruhlariga ta’sir ko‘rsata olish layoqatiga egaligi ta’lim samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

- Agar o‘qituvchi pedagogik mahoratga, yuqori darajadagi kasbiy sifatlarga hamda yetarli darajadagi pedagogik, psixologik bilimlarga ega bo‘lmasa, ta’lim jarayonida qo‘llanadigan vositalar qanchalik zamonaviy va xilma-xil bo‘lmasin, kutilgan samarani berolmaydi.

- Ta'lim-tarbiya jarayonida birgalikda o'qish metodlaridan foydalanish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, ularda shaxs sifatida mustaqillikni tarbiyalash, insoniy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuch va qobiliyatiga ishonch tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Hamkorlikdagi ta'lim har bir o'quvchining muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, birgalikda ta'lim olishga intilishni shakllantiradi.

XOTIMA

Axborot almashinuvning globallashuvi, dunyoning kichrayib, odam imkoniyatining ortishi ta'limga tamomila yangicha yondashish zaruriyatini keltirib chiqardi. Texnologik ta'limning o'qitish jarayoniga industrial tovar ishlab chiqarishdagi kabi konveyer usulini joriy etish, o'qitishning texnologiyasini faqat qobiliyatli va intizomli o'quvchilar emas, ta'lim jarayoniga tortilgan barcha bolalar ham mo'ljal qilingan natijalarga erisha oladigan tarzda tashkil etish mumkinligi pedagog mutaxassislar oldiga ham jiddiy talablarni qo'yimoqda.

Pedagogika hamisha o'zida davlat siyosati va ijtimoiy tuzum manfaatlarini aks ettirgan. Har bir davlat oldiga qo'ygan maqsad aynan o'qitish orqali amalga oshirilgan. Sho'ro davrida ta'lim bir xil tafakkurli, itoatkor, o'ylamay buyruqni bajaradigan soldatlarni shakllantirish talab etilgan bo'lsa, istiqlol davriga kelib o'z mustaqil fikriga ega, shaxsiy, kasbiy va milliy manfaatlariga uyg'un tarzda harakatlanadigan bolalarni tarbiyalash bosh maqsad sanaladi.

Zamonaviy pedagogika bilim, ko'nikma va malakalar o'quvchilarning o'zlari tomonidan mustaqil o'zlashtirilgandagina ta'lim jarayoni samarali kechadi, deb hisoblaydi.

Adabiyot boshqa predmetlardan farqli o'laroq, odam uchun faqat maktabdagi o'qish davridagina emas, balki umri mobaynida o'rgatilishi zarurdir¹. Adabiyot yaxshi o'qitilsa, maktabga kelganida eplab jumla tuzaolmaydigan bola tilning ma'no nozikliklarini puxta egallab oladi. Yozma va og'zaki tarzda ravon fikr ifodalashni o'rganadi. Eng muhimi,

¹ Dolimov S., Ubaydullayev H., Ahmedov Q., Adabiyot o'qitish metodikasi, -T.: «O'qituvchi», 1967. 268-275-betlar.

uni ezgu ma'naviyatli odam sifatida shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Xullas, o'quvchilarning ahloqiy-estetik jihatdan komil bo'lib tarbiyalanishi adabiyotga ko'p jihatdan bog'liq va ularni shunday qilib tarbiyalash adabiyotning vazifasidir.

Hozirgi kunda pedagogika ilmi va amaliyotida maqsadni natija bilan muvofiqlashtirishga urinish, **identifikatsiyalash** harakati ketmoqda. Ya'ni, o'qituvchi o'zi va o'quvchilari oldiga shu qadar aniq, ko'zga ko'rinadigan maqsad qo'yishi kerakki, u o'quvchi dars davomida erishadigan natijaga teppa-teng bo'lishi lozim. O'qituvchi qo'ygan maqsad bilan o'quvchi erishgan natijaning bir xilligiga erishish identifikatsiyalashgan (bir xillashtirilgan) maqsadga yetishish demakdir. Buning uchun umumiy maqsad o'ta konkret bo'lib, har bir unsuri aniq ko'rinish kasb etadigan darajada maydalashtirilishi, mashg'ulotni tashkil etgan modullarga muvofiq kelishi lozim bo'ladi.

Biz tadqiqot mobaynida ta'lim usullariga ko'p to'xtaldik. Zotan, metod pedagogik kategoriya sifatida ko'zda tutilgan o'quv-tarbiyaviy jarayonning umumiy maqsadiga erishishning yo'llarini anglatadi. O'qitish jarayonida metod qo'llanishi uchun a) o'quvchilar, b) o'qituvchi, v) o'zlashtiriladigan mazmun yoki erishiladigan natija kabi uch unsur bo'lishi kerak.

Oldinlari pedagogika ilmida ta'lim metodi tushunchasiga o'quvchi bilan o'qituvchining birgalikda faoliyat ko'rsatish usullarinigina o'z ichiga olardi¹. Endilikda ta'lim metodi tushunchasi bir qadar kengroq ma'noda anglanilib, ta'lim mazmuni yoki erishiladigan didaktik natijani

¹ Ковалева Л. Е. Факультативные занятия по литературе в школе, - Москва: 1974. ст13.

ham o‘z ichiga oladigan bo‘ldi. Negaki, o‘quvchilar bilan o‘qituvchining aynan shu yo‘sinda birgalikda faoliyat ko‘rsatishi tasodifiy bo‘lmay, balki o‘zlashtiriladigan ta‘lim mazmuni yoxud erishiladigan didaktik natijaga bog‘liq. Ta‘lim metodini ta‘lim mazmuni belgilaydi. Biz ham umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida badiiy asarlarni o‘rganishi lozim bo‘lgan o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda u yoki bu usulni qo‘llashni lozim topdik.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar o‘qituvchidan o‘rinli berilgan aqlli savollarni yuksak darajada qadrlashni, bitta aqlli savol o‘nlab to‘g‘ri, ammo jo‘n javoblardan ustun turishini ko‘zda tutishini talab qiladi. Shunda o‘quvchilarda kerakli va chuqur savollar berishga ichki ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bulardan tashqari, interfaol metodlardan foydalanayotgan o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga muammo qo‘yganidan keyin vaqtida “jimlik saqlash”ni ham bilishi va bu bilan o‘quvchilarga savollar ustida chuqurroq o‘ylab olish imkonini bera bilishi lozim. Bu asarlar badiiy jozibasini chuqurroq tuyishga sabab bo‘ladi.

Ko‘plab nazariy-metodik adabiyotlarni o‘rganish, ularning qiyosiy tahlili va o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari davomida erishilgan natijalarning atroflicha tahliliga tayanib quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

- Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar o‘quvchilar oldiga muammo tarzida qo‘yilgan asarni o‘zlashtirish uchun o‘zi o‘qibgina qolmay, bir-birlarini ham o‘qishga yo‘naltirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

- Adabiyot darslarida badiiy va she'riy asarlarni zamonaviy ta'lim usullarida o'zlashtirishda o'qituvchining o'rnini pasaymaydi, aksincha, ortadi.

- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usullari mustaqil izlanishga qaratilgani uchun o'quvchilarni qo'shimcha manbalar bilan ishlashga yo'naltiradi.

- Adabiy ta'lim bo'yicha shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usullari ta'limning kichik guruhlarda tashkil etilishini ko'zda tutadi va guruhdagi har bir o'quvchining bir-birlari hamda o'qituvchi bilan faol, qizg'in, ta'sirchan muloqotlariga asoslanadi. Bunday muloqot badiiy asarni o'zlashtirish, o'rgatish orqali o'rganish bilan birga o'quvchilarning ichki kechinmalarini namoyon qilishning muhim shartidir. Zero, adabiy ta'lim so'z orqali o'rganish, so'z orqali o'qitish va so'z orqali anglash, his qilish bo'lgani uchun faol o'quv muhitida so'z orqali o'zaro kuchli ta'sir ko'rsatishi tabiiydir.

- Interfaol usullar o'quvchilarni faqat o'qishga emas, balki o'qib o'rganish, o'rgatib o'rganish va o'rganib o'rgatishga hamda shu ma'lumotlarni amalda hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yondashuvlar tizimidir.

- Badiiy asarlar interfaol usullar yordamida o'rgatilsa, o'quvchilar asarning asl badiiy qimmatini anglaydi; obrazlarga hayotiylik nuqtai nazaridan yondashadi; ular da samarali muloqot va o'z fikrini to'g'ri, ravon, ifodali bayon etish hamda asosli himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

- Yuqorida berilgan asarlarni o'rgatish jarayoni shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida tashkil etilganda, uning tarkibiy tuzilmasidan birortasi noto'g'ri tanlangan bo'lsa, butun tizim ishlamay qolishi, bu esa ta'lim jarayoni oldiga qo'ygan maqsadga erisha olmaslik xavfini yuzaga keltirishi, ya'ni asar mazmuni o'quvchilar tomonidan yuzaki o'zlashtirilishi mumkinligi hisobga olinishi kerak.

- Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning hammasi ham har qanday didaktik usullar kabi o'qituvchidan alohida tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Chunonchi vaqt, maydon va inson resurslaridan o'rinli va maqsadli foydalanish darsdan kutilgan natijani kafolatlovchi muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”. /Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: 1997. -64 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni /Barkamol avlod–O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. /–T.: “O‘zbekiston”, 1997. – 214 b.

3 “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi P/F – 4947-sonli Farmon. – //Xalq ta’limi. 2017. 2-son. 3–35-betlar.

4. Mirziyoyev Sh.M “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limni tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi P/F-5712-sonli Farmoni.

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. 14-b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.

7. Karimov I. A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: “O‘zbekiston”, 1998. – 686 b.

8. Adabiyot darslarida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish. //Tuzuvchilar: Yu. Amirjonova, Q. Husanboyeva. –T.: “Asr Matbuot” MCHJ, 2003. – 20 b.

9. A.Qahhor zamondoshlari xotirasida. –T.: G‘.G‘ulom nashriyoti. 1987.

10. Abduvalitov E. Yangi pedagogik texnologiyalar muammolari. Adabiyot darslarida yangi pedagogik texnologiya //Til va adabiyot ta'limi. - 2001. №1.

11. Babayeva. D.R. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”, Darslik, -T.: 2018.

12. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o‘qitish metodlari. –T.: “O‘qituvchi”, 1990. – 228 b.

13. Беспалько В.П. Теоритические основы стандартизации тимсолования //Педагогическое обеспечение государственного стандарта тимсолования. – М.: ИРПО, 1994. – с. 3-42.

14. Берн Э. Игры, в которые играют люди. Психология человеческих взаимоотношений. Люди, которые играют в игры. Психология человеческой судьбы. - Москва: 1988.

15. Bolaga yo‘naltirilgan ta'lim dasturini tashkil etish. //X.Axmedova, D. Raximova. -T.: - 2012. - 262 b.

16. Дьюи Д. Образование и демократия. - Москва: 2000.

17. Гин А. Приемы педагогической техники. – Москва: “Вита”, 2000. С. 51.

18. Golish L.V. Faol o‘qitish usullarida mazmun tanlash, amalga oshirish. Ekspress qo‘llanma. –T.: Tasis. 2001. -38 b.

19. Выготский Л.С. Педагогическая психология /Под ред. В.В.Давыдова. – М.: Педагогика, 1991. – 480 с.

20. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Barkamol-fayz-media, 2018 – 352 b.

21. Husanboyeva Q. Adabiyot-ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. –366 b.

22. Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.dok. ...diss. avtoref. –T.: 2004.

23. Кларин М. В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. - Москва: "Арена", 1994.

24. Mahmudov R. Notqlik san'ati va nutq madaniyati. –T.: "Mumtoz co'z". 2021. -148 b.

25. Matchonov S. Kitob o'qishni bilasizmi? -T.: "O'qituvchi", 1993.

26. Mirqosimova M. Badiiy tahlil usullari. -T.: RO'MM,1993. –37 b.

27. Моисеев А.М. Содержание, формы и организация методической работы. - М., 1987.

28. Muxsiyeva A. "Oila pedagogikasi", O'quv qo'llanma. -T.: 2018.

29. Немова Н.В. Управление методической работой в школе. - М.: 1999.

30. Niyozmetova R. Adabiy matnni savol va topshiriqlar yordamida o'rganish. // Kasb-hunar ta'limi. 2005. 6-son, 16-17 b.

31. Niyazmetova T. Adabiyot darslarida mustaqil ishlar. –T.: "O'qituvchi", 1984. -64 b.

32. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: "Nasaf", 2000. – 79 b.

33. Поташник М. М. Управление качеством образования. - М.: Педагогическое общество России. 2001.

34. Qodirova F. Pedagog kadrlarga yangi pedagogik texnologiyalar haqida. //Til va adabiyot ta'limi. 2001. 4-son. 9-10-b.

35. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar. –T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. -244 b.

36. Rahimova G. Alisher Navoiy hayoti va ijodini sakkiz yillik o'zbek maktablarida o'rganish. Ped. fan. nom... diss. -T.: 1966. 55- b.

37. Rivojlantiruvchi o'yinlar. Развивающие игры. Tuzuvchilar: F.Vaxabova, D.Zaynutdinova. 2009.- 72 b.

38. Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения. Учебное пособие. Модуль 4. –Т.: 2007. С. 47.,

39. Sariboyeva M. Umumta'lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o'rgatish. –T.: 2014. 145 b.

40. Sayidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. –T.: RTM, 2000. – 46 b.

41. Селевко Г. К. Энциклопедия образовательных технологий. В 2 т. Т. 1 -Москва: 2006.

42. Tolipova J. Noan'anaviy ta'limning didaktik asoslari. Ped. fan. nom. ...diss. – T.: 1995. -182 b.

43. To'xliyev B. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2008. -110 b.

44. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: “Yangi asr avlodi” 2006. -152 b.

45. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. 10-sinf. 1-, 2-qismlar. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 244 6.
46. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. 11-sinf. 1-, 2-qismlar. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. – 244 6.
47. Yo‘ldoshev J. G‘. Ta’lim yangilanish yo‘lida. –T.: “O‘qituvchi”, 2000. -207 b.
48. Yo‘ldoshev J, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: “O‘qituvchi”, 2004. -104 b.
49. Yo‘ldoshev J, Yo‘ldosheva F., Yo‘ldosheva G. Interfaol ta’lim – sifat kafolati. (Bolaga do‘stona munosabatdagi ta’lim). -T.: 2008. -151 b.
50. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 1996. –152 b.
51. Yo‘ldoshev Q. Yangicha pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dok... diss. –T.: 1997. –306 b.
52. Yo‘ldoshev Q, Qodirov V, Yo‘ldoshbekov J. 9-sinf uchun darslik- majmua. –T.: “Yangiyo‘l Poligraf servis”, 2006. -400 b.
53. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. –T.: Kamalak, 2016. – 464 b.
54. Yo‘ldoshev Q, Sariboyeva M. Maktabda Oybek asarlarini o‘rgatish yo‘llari. Oybek ijodining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati Respublika ilmiy–amaliy anjumani materiallari. – T.: 2016. 167-175 b.
55. Занько С. Ф. и др. Игра и учење. - Москва: 1992.

56. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: “O‘qituvchi”, 1992. –333 b.

Internetdan olingan adabiyotlar:

1. www.pedagogika.ru.
2. www.Google.co.uz
3. www.ta'lim.uz
4. www.kitob.uz
5. www.ziyonet.uz...
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/04/03/5-tashabbus/>.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI	3
MUQADDIMA.....	6

I BOB. ADABIYOT DARSLARIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI O‘RGATISHNING NAZARIY MASALALARI

Adabiyot darslarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini o‘rgatishning ustuvor yo‘nalishlari.....	11
Adabiyot darslarida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarining o‘ziga xos pedagogik xususiyatlari.....	27

II BOB. SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING ZAMONAVIY USULLAR TIZIMI

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini o‘rganishda o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatining xarakteri.....	47
Adabiyot darslari samaradorligini oshirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodlaridan foydalanish yo‘llari.....	83

XOTIMA.....	114
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	119

MAXSUDA SARIBOYEVA O'RINBOYEVNA

**ADABIYOT DARSLARIDA SHAXSGA
YO'NALTIRILGAN TA'LIM
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

Monografiya

Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2020

Muharrir: Xolsaidov F. B.

*Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.
Bosishga 10.04.2021. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.
"Times New Roman" garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi.*

*Shartli bosma tabog'i 8. Nashr bosma tabog'i 7,85.
Adadi 100 nusxa.*

*"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-uy.*